

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

**XAJIBOEV KISHIN**

**«CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA MA‘NAVIY YETUKLIK  
VA TUBANLIK MASALASI»**

**(“Asrga tatigulik kun” va “Oq kema” asarlari misolida)**

**MAVZUSIDAGI**

**BITIRUV - MALAKAVIY ISHI**

**NUKUS – 2019**

Bitiruv malakaviy ishi o‘zbek adabiyoti kafedrasida yig‘ilishining 2019 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dos.B.Davletov
Kafedra mudiri:	f.f.n., dos. S.Matyaqupov
Ilmiy rahbar:	f.f.n., K.Tashanov
Bitiruvchi:	K.Xajiboev

Xajiboev Kishinning «**Chingiz Aytmatov asarlarida ma’naviy yetuklik va tubanlik masalasi**» (“Asrga tatigulik kun” va “Oq kema” asarlari misolida) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_» ball («\_\_%») qo‘yildi.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 yil

DAK kotib(as)i :

\_\_\_\_\_

**MAVZU: «CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA MA’NAVIY  
YETUKLIK VA TUBANLIK MASALASI»**

**(“Asrga tatigulik kun” va “Oq kema” asarlari misolida)**

**M U N D A R I J A:**

<b>KIRISH</b> .....	4
<b>Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi</b> .....	4
<b>I BOB. “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANIDA MANQURTLIK MA’NAVIY TUBANLIK SIFATIDA</b> .....	10
1.1. “Asrga tatigulik kun”da davr va inson muammosi. ....	10
1.2. “Asrga tatigulik kun”da manqurtlik ma’naviy tubanlik ramzi. ....	21
<b>II BOB. “OQ KEMA” – MA’NAVIY YETUKLIK VA TUBANLIKNING OLTIN MUVOZANATI</b> .....	31
2.1. “Oq kema”dagi qahramon tasvirida ma’naviy yetuklik va tubanlik.....	31
2.2. “Oq kema”dagi hayvonot olami tasvirida inson-tabiat uyg’unligi va ziddiyati muammosi. ....	44
<b>III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI</b> .....	50
3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo’yicha metodik tavsiyalar. ....	50
3.2. Dars ishlanmasi. ....	51
<b>XULOSA</b> .....	59
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	62

## KIRISH

### BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi:** Ma'lumki, istiqlol yillarida xalqimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida tub burilishlar jarayoni boshlandi. Bu davrda milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, barkamol avlodni tarbiyalash, mustaqillik mafkurasini yoshlar shuuriga singdirish kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida ilm-fanning boshqa sohaları qatori adabiyotshunosligimiz oldiga ham ulkan va mas'uliyatli vazifalar qo'ydi. Hayotimizning barcha sohaları qatori milliy adabiyotimiz tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ham adabiyot va ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilayotgani barchamizga ayon. Zero, adabiyotimizning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad ham so'z sehri ila insonlarni ezgulikka chorlashdir. Ayniqsa, badiiy adabiyotda xalqning ijtimoiy hayoti, ma'naviy-axloqiy turmushini tasvirlashda, hozirgi kunda yosh avlodni ruhan sog'lom qilib tarbiyalashda adabiyotning o'rni nihoyatda ahamiyatlidir. Xalqimizning turmush tarzi, betakror milliy an'analari, urf-odatları, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabati badiiy asarlarida o'z aksini topgan. Mamlakatimiz hududida asrlar davomida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari har bir avlod ijodkorlari tomonidan yangilanib, boyitilib, badiiy jihatdan yanada takomillashtirilib kelingan.

Jahon adabiyoti namoyandalari yuksak umuminsoniy g'oyalardan ta'sirlanib, badiiy barkamol asarlar yaratishgan. Har bir yozuvchi yoki shoir rang-barang janrlariga murojaat qilib, badiiy obraz va xarakter yaratishga harakat qiladi. Muayyan yozuvchi ijodini tadqiq etish – o'sha davr adabiy jarayonini, muallifning individual uslubi va mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. Qolaversa, har bir shoir yoki yozuvchi davr muammolarini talqin qilib, o'ziga xos badiiy-estetik dunyosini shakllantiradi. Shu sababli yozuvchi ijodini davr bilan uzviy aloqadorlikda o'rganish masalaning naqadar muhim va dolzarbligini ko'rsatadi.

O‘ziga xos poetik uslubga ega bo‘lgan Chingiz Aytmatov ijodi butun dunyo ahlini o‘zining haroratli so‘zi ila hayratga soldi. Yozuvchi ijodining originalligi u yaratgan badiiy asarlarda insonlarni ezgulikka, bashariyatni esa ogohlikka da’vat etishi bilan xarakterlanadi.

Chingiz Aytmatovning eng yaxshi asarlari allaqachon yangi jahon adabiyoti klassikasining tarkibiy qismi bo‘lib qoldi. Uning kitoblari uslubi jihatidan ham, ko‘tarilgan falsafiy masalalarga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi, shu bilan birga ularning umumiy jihatlari ham bor. Shu boisdan muallifning har bir asarini oradan vaqt o‘tishi bilan qayta-qayta o‘qiging keladi va har gal yangi va yangi jihatlarni kashf etasan. Aytmatov asarlarining kitobxonni ayricha hayajonga soladigan ta’sir kuchi jamiyatda pishib yetilgan muammolar o‘rtaga tashlanishidadir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’biri bilan aytganda: “Chingiz Aytmatov voqelikni badiiy obrazlarda yorqin aks ettirib, his-tuyg‘ularimiz va kechinmalarimizga teran ta’sir o‘tkazib, o‘z asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan adibdir. U o‘zining butun hayoti va ijodi bilan xalqlar do‘stligi va hamjihatligi, madaniyatlarning bir-birini o‘zaro boyitishi hamda ma’naviy qadriyatlarning rivojlanishi uchun kurashib keldi. Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqiga hamisha do‘st-u qadr don edi va shunday bo‘lib qoladi. U o‘z vatanida sadoqat hamda fidoyilik bilan xizmat qilish timsoli sifatida xotiramizda mangu yashaydi”<sup>1</sup>.

Yozuvchi Chingiz Aytmatov o‘zining olamga mashhur “Oq kema, “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Tog‘lar qulayotgan zamon (Abadiy qalliq)”, “Oxirzamon nishonalari” (Kassandra tamg‘asi) asarlarida o‘tmish va bugungi kunning, inson dunyosining murakkab olami kabi dolzarb mavzularini qalamga oladi.

Bitiruv-malakaviy ishmiz mavzusining dolzarbliigi Chingiz Aytmatovning “Oq kema, “Asrga tatigulik kun” asarlari misolida ma’naviy yetuklik va tubanlik masalasining asar qahramonlari, yozuvchining olam va odam haqidagi falsafiy-

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т. :“Маънавият”, 2008. 58-бет

badiiy qarashlari hamda mushohadalarining muammo tarzda qo‘yilib, yechimini izlashda ko‘rinadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Chingiz Aytmatov haqida adabiyotshunoslikda ancha keng tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yozuvchi tirikligi vaqtidayoq uning asarlariga, ijodiga yuksak baho berilgan. Yozuvchi badiiy ijod, uning mashaqqatlari, yozuvchi mas’uliyati kabi masalalar yuzasidan juda ko‘plab fikrlar bildirgan.<sup>2</sup> Rus adabiyotshunoslari Chingiz Aytmatovning ilk asarlaridan oxirgi romanlarigacha o‘zlarining eng iliq fikrlarini aytganlar.<sup>3</sup> Chingiz Aytmatov ijodining har bir qirrasini alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi. Uning hayoti va ijodi haqida o‘zbek adabiyotshunosligida ham bir qancha tadqiqotlar, maqolalar yaratilgan. Ularda yozuvchining badiiy ijod olami, roman, qissa va povest, hikoyalardagi qahramonlar, yozuvchi asarlarida folklor va g‘oyalar e’tirof etilgan. Jumladan, O.Sharafiddinov,<sup>4</sup> A.Alimova,<sup>5</sup> A.Jo‘raboev,<sup>6</sup> P.M.Mirza-Axmedova,<sup>7</sup> A.Rashidov<sup>8</sup>, I.G‘aniev va R.Ibragimov<sup>9</sup> kabi taniqli adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Ch.Aytmatov ijodi, asarlari to‘g‘risida samimiy fikrlari aytilgan.

Folklor an‘analari syujet va motivlaridan foydalanib, yirik asarlarni dunyo ahliga taqdim etgan yozuvchining o‘ziga xos mahorati va milliy epos an‘analari bilan uyg‘unlashgan asarlari tadqiqi olima Pariza Mirzaahmedova tomonidan tahlil qilingan<sup>10</sup>. Shuningdek, yozuvchi asarlari tarjimoni olim Asil Rashidov o‘z monografiyasida yozuvchining badiiy asarlari tahlili bilan bir qatorda uning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan alohida mehr-muhabbati haqida ham fikr bildiradi. Shuningdek, ishimizda yozuvchi haqida bitilgan bir qancha ilmiy maqolalardan

---

<sup>2</sup> Айтматов Ч. Мухаббат эътирофи. “Советская Киргизия”, 1962, 7 сентябр; Айтматов Ч. Очерки, статьи и рецензии о творчестве. Фрунзе, 1975.

<sup>3</sup> Арагон Л. Самая прекрасная повесть о любви в мире. // Культура и жизнь, 1959, № 7; Брандис Е.П., Дмитриевский В.И. Мир будущего в научной фантастике. - М.: Знание, 1965; Гачев Г. Чингиз Айтматов. Фрунзе, 1989; Лебедева Л. Повести Чингиз Айтматова. - М., 1972; Левченко В. Чингиз Айтматов. - М., 1983; Смелков Ю. Фантастика – о чём она? - М.: Знание, 1974; Воронов В.Ю. Чингиз Айтматов. Очерк творчества. - М., 1976.

<sup>4</sup> Шарафиддинов О. Инсониятнинг буюк вакили // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. 6.08.2008

<sup>5</sup> Алимова Д. Такдир тилсимларига таяниб... //durдона-alimova.livejournal.com. 15.01.2011

<sup>6</sup> Жўрабоев А. Сўз – башарнинг жонбахш ўзаги. //anvarjuraboev.blogspot.com. 6.06.2012.

<sup>7</sup> Мирза-Ахмедова П.М. Национальная эпическая традиция в творчестве Чингиза Айтматова. - Т., 1980.

<sup>8</sup> Рашидов А. Сўнмас юлдузлар. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1981; Рашидов А. Чингиз Айтматовнинг бадий олами. - Т.: Ўқитувчи, 2008.

<sup>9</sup> Ганиев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. –Т.: Akadernashr. 2013.

<sup>10</sup> Мирза-ахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Ч.Айтматова. Дисс.канд.фил.наук. М., 1981 г.

ham keng foydalandik. Jumladan, S.Qoraev, D.Alieva, O.Fayzullaev, S.Meliev, P.Mirzaahmedova, N.Sizdiqboev, N.Jbanova maqolalarida yozuvchi poetik olamining qirralari, xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanish uslubi va mahorati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur ishlar adib hayoti va ijodini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Ularda adib asarlari poetikasiga doir qimmatli ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi:** Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasining “O‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendensiyalari: Adabiy ta’limda innovatsion texnologiyalar” mavzusidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik dasturi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi hamda 2018-2019 o‘quv yiliga mo‘ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Jahon adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan adib Chingiz Aytmatov asarlaridagi ma’naviy yetuklik va tubanlik masalasini o‘rganish, shunga bog‘liq umuminsoniy muammolarni tadqiq etish bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishining mazvusi, maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni belgiladik:

- Muammoga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil etish va umumlashtirish;
- Chingiz Aytmatov va ma’naviy muammolar masalasini yoritish;
- "Asrga tatigulik kun" romanida ma’naviy yetuklik va tubanlik masalalarini o‘rganish;
- “Oq kema” qissasida tabiat va inson masalasini umuminsoniy muammolar yo‘rig‘ida o‘rganish;
- Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi o‘rganish;
- Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- 1 soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti:** Chingiz Aytmatovning “Tanlangan asarlar”idan<sup>11</sup> o‘rin olgan “Oq kema” qissasi va “Asrga tatigulik kun” romanlari bitiruv malakaviy ishimiz ob’ekti bo‘lib hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti:** Bitiruv-malakaviy ishining predmeti sifatida Chingiz Aytmatovning hikoya va qissalari, romanlari, shuningdek, yozuvchi haqda yaratilgan, uning ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, to‘plamlar va risolalar, vaqtli matbuotda e‘lon qilingan maqolalar manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlaridagi istiqloq va ma’naviyatga oid nazariy fikrlar, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, sharq mutafakkirlarining ma’naviyat, ma’rifat, komil inson to‘g‘risidagi ta’limotlari, mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishida manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, adabiy talqin metodlaridan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- Muammoga doir ilmiy-nazariy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil etish va umumlashtirildi;
- Chingiz Aytmatov va ma’naviy muammolar masalasini yoritildi;
- "Asrga tatigulik kun" romanida ma’naviy yetuklik va tubanlik masalalarini o‘rganildi;
- “Oq kema” qissasida tabiat va inson masalasini umuminsoniy muammolar yo‘rig‘ida o‘rganildi;
- Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi o‘rganildi;

---

<sup>11</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. II томлик. I- II томлар. - Т. : Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.



- Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;
- 1 soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** bitiruv malakaviy ish natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shunda ko'rinadiki, undagi xulosalar va bildirilgan fikr-mulohazalardan, keltirib o'tilgan ko'rsatma va uslubiy tavsiyalardan o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanlarida, adabiyot yo'nalishiga ixtisoslashgan akademik litseylarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari oliy o'quv yurtlarida «Jahon adabiyoti tarixi» fanini o'qitishda, bu fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliyotda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi:** Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Bitiruv malakaviy ishi natijalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar pedagogik amaliyot davrida joriy etildi.

**Ishning tuzilishi va hajmi:** bitiruv malakaviy ish kirish, 3 bob, 6 ta fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 66 betni tashkil etadi.

## I BOB. “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANIDA MANQURTLIK MA’NAVY TUBANLIK SIFATIDA

### 1.1. “Asrga tatigulik kun”da davr va inson muammosi.

Valloh a’lam– Alloh bilguvchidir, inson  
esa xato qilguvchidir.

**Odil Yoqubov, O‘zbekiston xalq yozuvchisi**

Yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani jahon miqyosidagi shuhratiga yangi shuhrat qo‘shdi. “Asrga tatigulik kun” romani bilan adib romanchilik pallasiga qadam tashladi. Asar o‘zbek tiliga adabiyotshunos olim Asil Rashidov tomonidan mohirlik bilan tarjima qilingan. Bu o‘rinda Chingiz Aytmatovning so‘zlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Menga ixlos qilib, kitoblarimni o‘zbek tiliga tarjima qilgan do‘stlarimga, ayniqsa, adabiyotshunos, tarjimon Asil Rashidovga tashakkur aytmochimani. Chunki mening “Oq kema”, “Jamila”, “Alvido, Gulsari!” kabi bir qancha povestlarimni Asiljon o‘zbekchaga xuddi men qirgiz tilida yozganday jarangli tarjima qila oldi. Mana shuning o‘zi ham do‘stlikning kuch-qudratidir”<sup>12</sup>. Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqining tom ma’nodagi chin do‘sti edi. Adibning ushbu romanida esa do‘stlikning haqiqiy ifodasi sifatida O‘zbekistonning bir qancha joy nomlarining tilga olinishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Asil Rashidov roman to‘g‘risida: “Alvido, Gulsari!” va “Oq kema” qissalarini qamrab olgan muhim hayotiy materiallarning ko‘lami va ularning badiiy yuksak darajada tasvirlab berilishi jihatidan roman janriga kiritish mumkin edi, biroq yozuvchi hali bunga o‘zini tayyor deb bilmadi, ijodning murakkab va yuksak cho‘qqilarini egallashda davom etdi. “Asrni qaritgan kun”(Bo‘ronli bekat) romani orqali esa ana shunday yuksaklikka ko‘tarila oldi”<sup>13</sup>, deb yozadi.

“Asrga tatigulik kun” serqatlam, tadqiqotchilar qayd etganidek, intellectual-parabolik romandir. Asarning bunday baholanishiga sabab unda turli uslubiy-struktur qatlamlar mavjudligi, real hayot tasviri mif-afsonalar bilan qorishib

<sup>12</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.:Ўқитувчи. 2011 й. 244- бет.

<sup>13</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи. 2011 й. 167-168 бет.

ketganiyu turli jonivorlar roman sahnida harakat qilib, mustaqil nuqtai nazarga ega bo‘lishi va mazkur nuqtai nazarlarning asar vujudida salmoqli o‘rin tutishidir deyish mumkin<sup>14</sup>. Garchi roman voqealari atigi yetti oiladan iborat kichik temir yo‘l bekatida bir kunda bo‘lib o‘tsa-da, unda yetti iqlimni qamrab olgan muammo, ming yillarga tatigulik xalq dardi, tashvishi ifodalanadi.

Chingiz Aytmatovning deyarli barcha asosiy asarlari o‘zbek tiliga o‘girilgan. Yozuvchining ko‘pchilik qissalarini, hikoyalari, “Asrga tatigulik kun” romanini Asil Rashidov, “Qiyomat” romanini Ibrohim G‘afurov, “Oxirzamon nishonalari” romanini, “Chingizxonning oq buluti” qissasini, «O‘tar qush nolasi» rivoyatini Suyun Qoraev o‘zbek tiliga tarjima qilgan va uchala tarjimada ham mutarjim asarlardagi ichki ohangni ushlashga erishgan.

Zamin uzra inson zoti paydo bo‘libdiki, kelajak sari, tafakkurning cheksiz kengliklari sari intiladi, betinim olam sirlari, borliq jumboqlarini ochmoqni o‘ylaydi, bilishni, yana va yana-da ko‘proq bilishni xohlaydi. Ayni shu sabab insoniyat taraqqiy etdi, olam ichra o‘z olamini yaratdi. Ammo bu taraqqiyot boshqa hodisalar uchun ham xizmat qildi. Ona Yer ustida tabiatning izchil qonuniyatlaridan chekinmay yashayotgan nabototu hayvonot olamini o‘z izmiga bo‘ysundirgach, Inson uchun go‘yo munosib raqib qolmadi. Shunda inson insonga qarshi kurasha boshladi. Tafakkur taraqqiyoti insoniyatning eng ayanchli fojiasiga sabab bo‘ldi. Bani bashar o‘z qo‘li bilan o‘zini qirg‘in qila boshadi, bu yo‘lda yuksak inson dahosidan foydalanib qirg‘inbarot qurollar kashf qilindi. Urush uchun o‘z taraqqiyot pillapoyalarida egallagan bor bilimlarini sarflab, turli bahonalar: siyosiy, ijtimoiy, diniy, irqiy sabablar qidirdi. Dunyo kurrayi zamindagi eng oliy xilqat – insonlar kurashi komida qoldi. Bu kurashlar hamon davom etmoqda.

Birgina XX asrning o‘zida ikkita jahon urushi yuz berdi. Bugungi kunda Siriya, Livan, Afg‘onistondagi urushlar natijasida qanchadan-qancha insonlar qurbon bo‘ldi, qolaversa, bu ayanch ko‘rgiliklar tabiatdagi qurbonliklarga ham

---

<sup>14</sup> Сувоп Мели. “Асрга татигулик кун ”: роман бадий структурасининг айрим хоссалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 2010 й. 2-сон. 4-б.

sabab bo'ldi. Nahotki, inson urushlarsiz, xiyonatlarsiz yashay olmasa? Buyuk ong qudrati faqat jangu jadallar uchun xizmat qilsa? Bu kabi savollar qalbida insoniy o'zlik yashayotgan har bir kishini og'ir o'ylarga toldirishi tabiiy. Yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani ayni ana shunday o'ylar, iztiroblar mahsuli bo'lib dunyoga keldi. Ushbu asarda Ch.Aytmatov beaded badiiy tafakkur olamining, ijodiy xayolotining g'oyat hayotiy, o'ta dolzarb va asriy muammolar tasviri uchun naqadar serqirra jilolanishiga guvoh bo'lish mumkin. Romanning bosh g'oyasi – tinchlik, zaminiy barqarorlik, insoniy barkamollik. Asar voqealari Inson koinotning ko'z ilg'amas ufqlarini zabt etishga qaratgan tafakkur qudrati bilan Yer yuzida asrlarning qonli manzarasiga bois bo'layotgan jangu jadallarni to'xtatish fursati yetganligini anglamog'i lozim degan fikrga urg'u beradi.

Asarda milliylik hislari bilan yo'g'rilgan dunyoviy dardlar, olamiy muammolar bo'y ko'rsatadi. "Asrga tatigulik kun" romanining o'ziga xosligi shundaki, butun boshli bir umrning to'kis manzarasi, shu umrga bir necha yil yondosh bo'lgan insonlarning taloto'p taqdirlari, tarix qatlaridan saboqli sado berib ezgulikka undovchi rivoyatu afsonalarning puxta syujeti, qolaversa, olis koinot qo'ynidagi sirli voqealar – shularning barchasi bir kun – ertalabdan to kechga qadar bo'lgan vaqt oralig'i ipiga juda mohirona tiziladi. Asar nomi ham shunga ishora qiladi: "Asrga tatigulik kun". Chindan ham bu kun o'zida hayot mazmuni, tiriklik tayanchi haqidagi zalvorli o'ylar, olam va odam to'g'risidagi, insoniyatning hatto o'zi kashf qilgan kuchli texnikalar kompyuteru moslama bilan ham baribir ruhiyat sirlari oldida ojizligi borasidagi so'ngsiz iztiroblarni jamlagani bois asr bilan bo'ylashgulik qiymat qasb etadi. Roman tarjimoni Asil Rashidov aynan asarning sarlavhasiga so'z tanlashda g'oyat nozik badiiy did bilan yondashganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Romanda Edigey Bo'ron va uning sinovlarga to'la hayoti akslanadi, balki agar har bir inson Edigey kabi mardona, faqat insoniy o'y-xayollar bilan yashay olsa, o'tayotgan umri haqida o'zini butun borliqqa aloqador deb bilib, mushohada qila olsa, asrlarga tenglashadigan kunlar ko'payaveradi degan ilinj, umid yashirin.

Yozuvchining asl niyati ham shu aslida. U insoniyatdan asrga tatiydigan kunlarning ko'pini kutadi. Zotan, borliq jonzotlari ichra faqat insongina o'tmishi, bugungi, ertasi haqida o'ylashga, o'zni, o'zligini, hayot mazmunini anglashga, tiriklik va o'lim haqida tafakkur qilishga qodirdir.

"Asrga tatigulik kun" - bu nom faqat Edigey Bo'ron hayotigagina tegishli bo'lgan kun borasida so'zlaydi. "Asrga tatigulik kun" - bu nomda har bir odamzot nasliga beriladigan yashash tilsimini anglash, o'ziga o'zi baho berish, inson kabi fikrlab, insoniy tafakkur qilish va kunlarida asr qudratini his qilish imkoniyati mavjud.

Ch.Aytmatovning biror-bir asarida epigraf yo'q. Lekin "Asrga tatigulik kun" romaniga yozuvchi boshqa asarlaridan farqli o'laroq epigraf tanlagan:

Bul kitob jismu fig'onimdir mening,

Bu kalom jonu jahonimdir mening.

X asrda yashagan gruzin shoiri Grigor Narikatsining "Musibatnoma" asaridan olingan bu ikki misra romanning butun mohiyati va ruhiyatiga to'la mos tushgan. Negaki, roman voqealar tizimidagi har bir lavhada inson dardi, qismat bilan olishuvi, iztirobu fig'onlari murosasiz tasvirlanadi. Go'yo shu ikki misra asar voqealari tegrasida parvoz qilganday, qahramonlar tiliyu dilida sadolanganday bo'ladi. Bu esa asarning badiiy ta'sir qudratini yanada oshirishga xizmat qilgan. Ch.Aytmatov bu romanida ham o'ziga xos ijod usulidan foydalangan: "Oldingi asarlarimda bo'lgani kabi bu gal ham o'tmish ajodlardan bizga meros qolgan afsonalarga, ertaklarga, rivoyatlarga tayangan holda ish tutdim".<sup>15</sup> Raymali og'a va Nayman ona haqidagi rivoyatlar asosiy syujet chizig'iga g'oyat mahorat bilan ulanadiki, agar bu rivoyatlar asar matnidan olib tashlanadigan bo'lsa, romanning salobatli syujet imorati kunpayakun bo'lishi tayindir. Chunki yozuvchi ularning asar hodisalari qatiga singdirishga, o'tmish va bugun o'rtasidagi vobastalikni teran anglashga erisha olgan. Roman bosh voqealari bilan omuxtalanib ketgan o'tmish

---

<sup>15</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 8-бет

rivoyatlarning mantig'i, ta'sir kuchi bugungi hodisalar fonida yanada ortiqroq ahamiyat kasb etadi.

Asarda Sario'zak, Nevada kosmodromlari, "Paritet" fazoviy kemasi, insoniyat erishgan taraqqiyotdan ancha ilgarilagan koinotning olis burchagidagi To'qayto'sh sayyorasi bilan bog'liq tasvirlar alohida syujet – fantastik voqelikka birlashtirilgan. Albatta, yozuvchining asosiy maqsadi fantastik to'qimadan foydalanish emas, balki shu hayotiy bo'lmagan voqealar orqali zamindagi chinakam ahvolni ko'rsatishdan iborat edi. Chingiz Aytmatov garchi bunday syujet yaratishga birinchi bor uringan bo'lsa ham, debyut hodisa sifatida hech qanday kamchilikka yo'l qo'yilmagan. Yozuvchi o'z fantastik to'qimalarini shu qadar jonli tasvirlaydiki, kitobxon ularga asl haqiqat kabi ishonadi. Bu esa kitobxonning asar tasvirlarining biron o'rnida qoqilmasligiga, romanning yengil o'qilishiga sabab bo'ladi.

Asar voqealari Qozog'istonning Sario'zak degan cho'lidagi "Bo'ronli" bekatida bo'lib o'tadi. Yozuvchi Sario'zak cho'lining tarixi bir necha asrlarga borib taqalishi haqida bir o'rinda qisqagina to'xtalib o'tadi: "... ellik uchinchi yil arafasida bo'ronliklar haqiqiy bayram qildilar. Bayramni Quttiboevlar oilasi boshlab berdi. Yangi yil tayyorgarligiga Edigey kechroq kelib qo'shildi. Hamma narsa Quttiboevlar oilasi bolalarga atab archa yasatmoqchi bo'lishganidan boshlandi. Archani qaerdan topishadi? Sario'zakda dinozavr tuxumi topilsa topiladiki, archa topilmaydi. Yelizarov geologiya so'qmoqlarida yurgan choqlarida bundan million yillar ilgari yashagan dinozavr tuxumini Sario'zakdan topib olgan-ku, axir!"<sup>16</sup>. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, Sario'zak cho'lining ham million yillarga tatigulik tarixi borligini yozuvchi keltirib o'tadi. Yoki Elezarovning Sario'zak cho'li haqida "Sario'zak cho'li – tarixning unitilgan kitobi" deb aytgan jumlarining o'ziyoq fikrimizga dalil bo'la oladi. Chunki markazdan juda olisda va hech kimning nazariga tushmaydigan bu maskan umumiy hayot oqimidan chetda qolgan, lekin o'ziga yarasha ichki bir bo'ron bilan yashaydi. Bu yerning jazirama issig'iga, "Bo'ronli" bekatining bo'ronli

---

<sup>16</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.:Фан. 2011 й. 173- бет.

izg'irinlariga (bekatning nomi ham shundan kelib chiqqan) yoki Sario'zak cho'lining quturgan shamollariga chidash uchun odamning joni mingta bo'lishi kerak.

Chingiz Aytmatov – xarakter yaratishga usta yozuvchi. Chunki u hayotni sezgirlik bilan kuzatadi. Insoniy fazilatlarni yorqin chizib berishga harakat qiladigan hayotiy konfliktlarni tanlaydi.

Ayrim shaxslarning ziddiyatli ruhiy kechinmalari, ularning ijtimoiy ong shakllari bilan, ayni vaqtda, ro'y berayotgan siyosiy voqealar bilan chambarchas o'zaro aloqasi – har bir badiiy asarning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Chingiz Aytmatov asarlari dolzarbligi, o'tkir siyosiy muammolarni ko'tarib chiqqanligi bilan xarakterlidir. Tasvirlanayotgan voqealarning markazida tarixiy hodisalarning o'zi emas, balki shu hodisalar ta'sirida inson ichki dunyosining tarkib topishi haqida so'z boradi<sup>17</sup>.

Bu bekatda Sario'zak dashtining bor injiqliklariga matonat bilan chidab yashayotgan sakkizta xonadondan iborat temir yo'l ishchilarining mo'jzagina Bo'ronli qishloqchasi bor. Asar qahramonlari shu bekatga taqdir taqozosi, qismat mashaqqatlari sabab kelib qolgan oddiy temir yo'l mehnatkashlari. Ularni shu temir izlar birlashtiradi va shu temir izlar ajratadi. Yozuvchi yana voqealar tasvirini bayon qilishda o'ziga xos betakror usuldan foydalanadi, ya'ni har bir bosh lavha muqaddimasida quyidagi jummalarni keltiradi:

"Bu o'lkalarda poezdlar mashriqdan mag'ribga tomon, mag'ribdan mashriqqa tomon paydar-pay qatnab turadi...

Temir yo'lining ikkala tomonidan yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik – Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi". Asarning boshidan to oxiriga qadar 12 o'rinda ta'kidlangan<sup>18</sup> bu jumlar roman ohangini paydo qiladi go'yo. Bu ohangda poezdning bir maromdagi taraq-turuq va Sario'zak dashtida esayotgan kuchli shamolning temir izlarga urinib, bo'g'iq ingrashi uyg'unlashadi. "Asrga tatigulik kun"ning mungli musiqasi paydo bo'ladi. Bu kuy asarning har sahifasida,

---

<sup>17</sup> Қораев Суюн. Инсонпарвар адиб. “Маърифат” газетаси. 2010 й. 21- декабрь

<sup>18</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 12-26-54-76-92-105-116-186-202-241-261-282-бетлар

har misrasida, har soʻzida sadolanib turadi va kitobxon ruhiyatini asardagi qahramonlar ruhiyatiga yaqinlashtiradi. Bu esa romanning oʻquvchi qalbidan chuqur joy olishiga, undagi gʻoyalarning oʻquvchi dunyoqarashiga oson singishiga va ijodkor tuygʻularini toʻla anglashiga yordam beradi.

Ushbu romanning oʻziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, yozuvchi asarni kirish soʻz bilan boshlagan.<sup>19</sup> "Muallifdan" nomi ostida keltirilgan bu kirish soʻzda Ch.Aytmatov oʻz asarining bosh gʻoyasi, muammolar qamrovi va eng muhimi bosh qahramon bilan tanishtiradi: "Edigey Boʻronni davrimizning charhi olam mehvariga – oʻzimni hayajonga solayotgan muammolarning markaziga qoʻyib tasvirlashga intildim".<sup>20</sup>

Donishmandlar chinakam baxtga eltuvchi yoʻl bitta, u ham boʻlsa, mehnat yoʻli ekanligini taʼkidlashgan. "Asrga tatigulik kun"da ana shu mehnat yoʻlining zahmatkash yoʻlovchilari qadr-qimmat, baxt izlovchilari boʻlgan insonlar taqdiri yoritilgan. Jumladan, Edigey Jongeldin. Asarning dastlabki tasvirlarida oltmish bir yoshga kirgan boʻlsa ham, hali ancha bardam, umrining oʻttiz ikki yili, oʻttiz ikki bahoru qish bilan yaydoq dashtu temir izlar hukmron bekatga achchigʻu shirin xotiralar bilan bogʻlangan, hayotini mehnatdan ayro tasavvur qilolmaydigan oddiy temir yoʻl ishchisi sifatida boʻy koʻrsatadi. Kitobxon bu oʻrinda "yozuvchi oltmishdan oshgan chol bilan nima karomat koʻrsatmoqchi" degan oʻyga borishi ham mumkin. Ammo yozuvchi karomat koʻrsata oladi. Bu karomat oltmish bir yoshli cholning xotiralari, oʻtmish saboqlari, boshdan kechirgan kechmishni kitobxon koʻz oldida gavdalantirish, xulosani oʻquvchi haddida qoldirishda edi.

---

<sup>19</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 7-9-бетлар

<sup>20</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 7-бет



Voqealar ibtidosidayoq Edigey taqdir tuhfa qilgan noyob inson – haqiqiy, chin ma’nodagi do’sti, qalbini, fikrlarini tushuna oladigan, dunyoqarashini hurmat qiladigan maslakdoshi Kazangapdan doim muzaffar o’lim sabab ajraladi. U to o’lim ajratmaguncha do’stlik sadoqatini dog‘ tushirmay saqlagan bebaho do’st edi. Edigey Kazangapni vasiyatiga ko’ra Ona Bayit qabristoniga dafn qilmoqchi bo’ladi. Dafn marosimi sabab Ona Bayitga tomon boshlangan yo’l – Edigeyning xotira yo’liga aylanadi. Chunki u yo’l davomida butun umrini, iztirobu quvonchlarini esga oladi. Ayni shu xotiralar sabab asar syujeti tiklanadi. Edigey oltmish yillik xotirani ag‘dar-to‘ntar qilib, topganlari va yo‘qotganlari haqida hosil qilgan xulosalari asar mag‘zining to‘qlashishiga olib keladi. O‘quvchi bu kechmish lavhalaridan zerikmaydi, balki inson hayotidagi har bir hodisa oliy maqsad - o‘zikni anglash sari berilgan taqdir turtkisi ekanligini anglaydi. Edigey Bo‘ron xarakteriga xotiralar turfa chizgilar tortadi. Unda vijdonli vatanparvar, ishchi, jangchi, mehribon er, kuyunchak ota, munosib do‘st, ta‘masiz oshiq va e‘tiqodida sobit shaxs xarakterlari umumlashadiyu, kitobxon ko‘z oldida haqiqiy Inson siymosi gavdalanadi.

Dengiz bilan sirlashib, to‘lqinlar bilan tillashib, Orol bo‘yida ulg‘aygan Edigey Jongeldin urushga ketib, frontdan kontuziya kasaliga uchrab qaytadi. Qadrdon zaminida taqdir uni ikkinchi zarba farzand dog‘i bilan kutib oladi. Urushning haqiqiy dahshatini janggohda emas, undan ancha olis uyida tuyadi. Ham jismi, ham qalbi xastalangan Edigey xotini Ukkubola bilan Oroidan ketishadi. Qismat ularni Kazangap bilan to‘qnashtiradiyu olis Sario‘zak sari boshlaydi. Ular hayotini yaydoq dashtda sinovlarga qasama-qasd qayta qurishadi, yashash uchun kurash yo‘lida bir qadam ham ortga chekinishmaydi. Edigey ba‘zilar bir yil ham bardosh berolmaydigan Sario‘zakning ayovsiz jaziramasiyu shafqatsiz qahratonida baxtini topadi, umr mazmunini anglaydi, o‘zini inson sifatida qayta kashf etadi. Qozog‘istonning olis burchagidagi biyobonda, shamolu bo‘ronlar hukmron bekatda poezdlarning batartib qatnovini ta‘minlayotganidan, aynan u sabab temir g‘ildiraklar manzil sari bir maromda yo‘l olayotganidan faxrlanadi. Bu ishni dunyodagi eng olijanob, shu bilan birga eng zahmatli ish deb biladi. Negaki,

"Sario'zak dashtlarida ishlaydigan odamning joni mingta bo'lishi kerak. Bo'lmasa sho'ri quriydi" (16-bet). Edigey esa jonini mingta qilolgan, dashtga, uning bor injiqliklariga ko'nika olgan inson edi. Shu sabab u Bo'ronlini vatan qildi, shu yerga ildiz otdi. U o'z ishini shunchaki emas, balki vijdonan amalga oshiradigan o'ta halol temir yo'l ishchisi edi. Mehnatdan qochmagani, tiriklikni ta'minlovchi qudratni mehnatda deb bilgani uchun u oddiy ishchi Edigey Jongeldindan Edigey Bo'ronga aylanadi. Bu nom unga, birinchidan, tabiatining bo'rondek bo'ysunmas, tanlagan yo'lida, dunyoqarashida g'oyatda sobit ekanligi uchun, ikkinchidan esa Bo'ronli bekatiga sodiq qolgani uchun berilgan edi.

Edigey obraziga xos xarakterning to'la namoyon bo'lishini Abutolib Quttiboev va uning oilasi bilan bog'liq voqealar silsilasida ko'rish mumkin. Urush yillari asirga tushib, yagona bir imkon evaziga konslagerdan qochishga erishgan va to urush yakuniga qadar yugoslav partizanlari safida jang qilgani uchun vataniga qaytgan Abutolibni sovet hukumati urushda asir tushgan askar sifatidagina qabul qildi, xolos. Natijada, u sobiq kasbi muallimlikni ham davom ettirmaydi. Urushning o'zi tugagan bo'lsa ham, uning sovuq nafasi hamon hukmron edi. Shu sovuq nafasdan qochib u xotini, ikki bolasi bilan Bo'ronliga keladi. Abutolib taqdiri qanchalar mashaqqatli bo'lmasin og'rinmasligi, o'zini oilasidan ayro mutlaqo tasavvur qilolmasligi, bolalarining lahzalik quvonchi uchun jonidanda kechishga tayyorligi bilan Edigey dunyoqarashlariga ta'sir ko'rsatadi. U Edigey uchun chinakam oilaparvar inson edi. Ammo taqdirning uzun qo'llari Sario'zak dashtiga ham yetdi. Bolalarining ma'rifatli, milliy an'analar ruhida tarbiyalanishi uchun qozoq folkloriga oid rivoyatu afsonalarni, qo'shig'u ertaklarni yig'gan, bundan tashqari boshidan kechirgan bor voqealarni asl rangicha qog'ozga

ko'chirayotgan Abduolib boshiga shu yozuvlar balo bo'ladi. Uni shu xotiralari uchun qamoqqa olib ketishadi. Asarda Edigeyning Abduolibni himoya qilish uchun tergovchiga qarata aytgan gaplari Edigey ruhiy olamini anglashda muhim ahamiyatga ega: ".. Sen aytyapsanki dushmanlik ruhidagi xotiralar deb. Buni qanday tushunsa bo'ladi? Xotira dushmanlik yoki nodushmanlik ruhida ham bo'lishi mumkinmi? Menimcha, odam allaqachon o'tib ketgan voqealarni qaerda, qachon, qanday sodir bo'lganligini xotirlaydi. Yoki bundan chiqdi, yaxshi narsalarni eslash keragu yomon, noxush narsalarni esa unutish kerak demoqchimisan. Bunaqasi hech qachon bo'lmagan bo'lsa kerak".<sup>21</sup> Bu vijdon tafti bilan yongan jumlar Edigeyning o'sha davr siyosati, shaxsga, shaxs xotirasiga qaratilgan jirkanch siyosati va "ana bu kuningni eslashing mumkin, mana kuningni esa unutasan" degan be'mani, aqlga malol talablariga qarshi isyoni edi. Demak, Edigey tuzum talabi bilan emas, balki vijdon, e'tiqod talabi bilan yashaydigan insondir.

Edigey Bo'ron xarakterining yorqin chiziqlaridan biri odamlarga bo'lgan hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbatdir. Undagi shu oliy sevgining otashga aylanishida esa Zarifaga nisbatan qalbida ildiz otib, ruhiyati qadar ko'tarilgan chinakam sevgi bois bo'ldi. Edigey Zarifani, uning bolalarini joni qadar yaxshi ko'rib qolgani uchun vijdoni qiynaladi. Chunki u sevib qolgan ayol o'z do'sti, hamkasbining bevasi edi. Ammo "asl muhabbat og'ir keladi".<sup>22</sup> Ha, Edigey qalbidagi ishq chin mushkulot edi. U "Zarifaga ham dardini ochiq-oydin aytolmas, Ukkubolani ham tashlab ketolmasdi?"<sup>23</sup> Edigey oshiq dardi va erlik burchi, otalik mas'uliyati olovining o'rtasida iztirob chekadi: "O'shanda o'zini-o'zi eng oxirgi so'zlar bilan so'ka boshladi: Hayvonsan! Tuyang ham, o'zing ham hayvonsan! Ablah! It! Miyasi aynigan!" Lekin u Edigey edi. Hayotga shunchaki yuzaki qaraydigan inson emas edi. Kitobxonga Edigeyning oilali, xotini, bolalari bor

---

<sup>21</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 156-бет

<sup>22</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 227-бет

<sup>23</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 204-бет

erning, otaning boshqa bir ayolga ko'ngil bog'lashi, sevgi azobida o'rtanishi erish tuyular, ehtimol. Ammo bu sevgining maqsadi o'zgacha edi. Edigey o'z muhabbati bilan yetim qolgan bolalarning o'ksik qalbini quvnatmoqchi, ularga shodliklarini qaytarmoqchi, ma'sum, begunoh bir ayolga tirkak bo'lmoqchi, shu bilan taqdir azoblagan bir oilaning baxtini asrab qolmoqchi edi. Shu sabab Edigeyning Zarifaga bo'lgan muhabbati aslida hayotga, yashashga, baxtu saodatga bo'lgan sevgi edi deb ayta olamiz. Shunday muhabbatni his qilgan qalb esa insoniylikning teran tuyg'ularini tuymoqqa qodir olijanob qalbdir.

Edigey millatini, xalqini, milliy an'anayu urf-odatlarini, asriy qadriyatlarni benihoya hurmat qiladigan, ular bilan faxrlanadigan haqiqiy yurt farzandi. U vatanini jannatmakon go'shalarda emas, balki olis, inson yashashi mumkin bo'lmagan – yozda kuydirib jizg'anak qiluvchi jazirama, qishda esa beshafqat qahraton sovuq, qorli bo'ronlar hukmronlik qilgan temir yo'l bekati – Bo'ronlida yashab, poezdlargina tinchini buzmoqqa qodir poyonsiz Sario'zak dashti timsolida sevardi, beg'ubor beta'ma sevardi. U uchun vatanning o'zi mavjud bo'lgan bugunigina emas, balki rivoyatu afsonalarning sirli qatlarida yashab kelayotgan o'tmishi, kechmish-kechirmishi ham g'oyat qadrli edi. Shu sabab u yurt tarixining bir bo'lagi bo'lgan Ona Bayit qabristoni taqdiridan chinakamiga tashvishga tushadi. Uzoq yo'l yurib, Kazangapning so'nggi vasiyatini ado qilish istagida Ona Bayit tomon kelgan Edigeyni baland simto'siqlar qarshi oladi. Bizningcha, simto'siq – bu ramz, millatni mingyillik tarixidan, milliy o'zlik asosi bo'lgan qadriyatu marosimlardan mosuvo qilish, ajratish ramzi. Sho'ro hukumati o'z mustabidona siyosatining kutilgan natijaga erishishi uchun tanlagan eng qabih usuli mahalliy aholini tarixi, dini, muqaddas qadamjolari, e'tiqod qo'ygan bari-bari narsasidan mahrum qilish bilan zamonaviy manqurtlarni tarbiyalamoqni ko'zlagan edi. Edigey esa Ona Bayit qabristonining shunchaki yangi mikrorayon qurilishi uchun tugatilmayotgani (ajdodlar xoki, xotirasi uzra avlodlarning o'z mashiatlari uchun bino solmoqlari – qandayin dahshat, qiyossiz qiyomat bu!), balki o'sha siyosat ko'zda tutganlarining amalga oshishi uchun izchil harakat ekanini tushunadi. Ona Bayitdan ajralish, do'stini vasiyat qilgan mozoriga emas,

Malaqumdichop jarligidagi bir tepalikka dafn qilishgani uni iztirobga soladi: "Nayman Ona orom olayotgan tabarruk qabristonimizdan bundan buyon mahrum etilganimiz uchun suyagim qaqshaydi". Ammo u taslim bo'lmaydi, Kazangap ruhiga so'z beradi: "Seni Ona Bayitga dafn etolmaganimiz uchun biz aybdor emasmiz. Ammo xafa bo'lma, bu ishni men shundayligicha qoldirmayman. Qaerga borish lozim bo'lsa, boraman. Ko'zim tirik ekan, jim turmayman. Aytadiganimni aytaman ularga!"<sup>24</sup> Asarning butun ruhiyati mana shu so'zlar tufayli ko'tariladi.

Aytmatovshunoslarning ko'rsatishicha, "Manas" eposidagi "Manqurt afsonasi" Chingiz Aytmatov e'tiborini tortgan folklor obrazlari talqinidagi tipik transormatsiya namunasi bo'lib, "Asrga tatigulik kun", "Oq kema", "Qiyomat", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar"da va boshqa bir necha asarlarida ham folklor motivlariga suyangan adib, uning yangi talqinini yaratdi.

Kitobxon millatni asrash, uning saboqbergich tarixini avaylashga qodir inson borligidan, demakki, hammasi yaxshi bo'lishi uchun umid ustg'onchanidan yorug'lik tuyadi. Edigey Bo'ronga o'xshash e'tiqodida sobit, so'zda emas, amalda vatanparvar haqiqiy Insonlar bor ekan, millat ham, tarix ham yashaydi – uni hech kim, hech qanday kuch yo'qotib tashlolmaydi – asar ana shunday yorug' ishonch, so'nmas umid bilan nihoyalanaadi.

## **1.2. "Asrga tatigulik kun"da manqurtlik ma'naviy tubanlik ramzi.**

Mashhur adib Chingiz Aytmatov o'z maqolalaridan birida bu haqda maxsus to'xtalib shunday yozganida to'la haqli edi: "Men hamisha epos haqida fikr yuritaman. Bu xalq donishmandligining o'ta murakkab, ko'p qirrali tajassulidir. Lekin men eposni o'z asarlarimga shunchaki emas, balki uni o'zlashtirgan holda kiritaman".<sup>25</sup>

Asar kompozitsion qurilmasini tashkil etuvchi syujet elementlarini bir-biriga uyg'unlashtirish, voqeilik tasvirini keng ko'lamligi va rang-barangligini ta'minlash, qahramonlar xarakterini chuqur tahlil etish, g'oyaviy-estetik

---

<sup>24</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 273-275-бетлар

<sup>25</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. II жилд. - Т.: Шарқ, 2012.

mohiyatini chuqurlashtirish, syujet rivojidadagi mutanosiblikni saqlash va obrazlar silsilasining poetik birligini asoslash, badiiy tasvirning emotsional-estetik kuchini oshirish, tasvirlanayotgan voqelikning milliy-etnografik qiyofasini yaratish uchun afsona va rivoyatlar badiiy asar g'oyasiga singdiriladi. Afsona va rivoyat syujetini ijodiy qayta ishlash, rivoyatlarni badiiy asar to'qimasiga o'rinli qo'llay bilish ijodkorning mahoratidan kelib chiqib joylashtiriladi.

Chingiz Aytmatov qomusiy "Manas"ning ulkan mavzulari orasidan birgina rivoyatni olar va uni ijodiy o'zlashtirib, boyitib, yangi asar yaratar ekan, bu bilan milliy eposga murojaat etishning o'ziga xos yangi uslubini kashf etdi.

Eposning kichik zarrasidan kelib chiqib, ulkan umumbashariy falsafa yaratgan Chingiz Aytmatovga xos uslub va vositalar zamonaviy romanchilik yo'nalishida alohida o'rin egallaydi. Ch.Aytmatovning eposning har qanday katta-kichik unsurlarini tadqiq etish yo'li nihoyatda progressiv bo'lib, o'z navbatida, u xalq ijodidan foydalanib yaratilgan asarlarda majoziy vositalarni idrok qilishni, epik vositalardan hosil bo'lgan qadriyat muayyan bir xalqqagina mansub bo'lmay, balki umuminsoniy ma'no-mazmun kashf etishini; zamon va inson munosabatlarida o'zlikni anglash, qadriyatlarni e'zozlash tuyg'usining ulkan ahamiyatini anglashga o'rgatadi.

Chingiz Aytmatov prozasida "Manas" eposining ayrim olingan kichik rivoyatlari asosiy syujet bilan bog'lab talqin qilinishi uning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi.

"Yozuvchi bo'lganim uchun emas, balki bir oddiy qirg'iz sifatida ham "Manas" menga nihoyatda qadrli. Unga qayta-qayta murojaat etarkanman, bu epos nafaqat qirg'izga, balki inson zurriyodining barcha qavmiga ahamiyatli ekanligini tushundim", degan edi Chingiz Aytmatov xitoylik jurnalist Su szishan bilan bo'lgan so'nggi suhbatida.<sup>26</sup>

Yozuvchi "Nayman ona va uning manqurt o'g'li" haqidagi rivoyatni o'sha davr manqurtlari hisoblanmish Kazangapning o'g'li Sobitjon va Abutolib Quttiboevni imperializmga qarshi jinoyatchi deb ayblab, Kazangapning mayitini

---

<sup>26</sup> [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz). com

ota-bobolari dafn etilgan qabristonga ko‘mishga ruxsat bermagan chag‘irko‘z leytenant Tansiqboev obrazlariga “kesatliq” sifatida keltirib o‘tgan bo‘lsa, asar syujetidagi “Raymali og‘a va Begimoy” epik rivoyatini Edigey va Zarifa o‘rtasidagi botiniy sevgining hosilasiga bag‘ishlaydi.

“Asrni qaritgan kun” romanida ham azaliy va abadiy mavzu sevgi-muhabbat haqidagi rivoyatlarga murojaat etadi va zamonasining mashhur oqini Raymali og‘a va uning sehrli san‘atiga topingan hamda uning izidan borishga qat‘iy ont ichgan oshiqu beqaror qiz Begimoy to‘g‘risidagi rivoyat vositasida insonga qanot baxsh etuvchi o‘tli muhabbatning mo‘jizakor qudratini madh etadi. Raymali og‘a haqidagi rivoyat “Asrni qaritgan kun” romani syujeti bilan uyg‘unlashib ketgan holda o‘zi mustaqil asar, go‘zal bir novella sifatida ham xarakterlidir.<sup>27</sup>

Hamma voqea o‘z davrida xalq dushmani sifatida e’tirof etilgan Abutolib Quttiboev va uning rafiqasi Zarifaning taqdir taqozosi bilan Bo‘ronli bekatiga kelib qolgan kunlaridan boshlanadi.

Ma’lumki, asarda Abutolib Quttiboev va Zarifalar oilasi boshiga tushgan og‘ir qiynoqlar, cheksiz kulfatlar – shaxsga sig‘inishning inson taqdiridagi halokatli oqibatlarini, o‘chmas izlari haqqoniy gavdalantirilgan. Abutolib fojiasi tarixi bitilgan sahifalarning o‘zi yaxlit bir san‘at asaridek kishi qalbini junbushga keltiradi va romanning eng ta’sirli, hayajonli qismlaridan hisoblanadi<sup>28</sup>.

Chingiz Aytmatov qahramonlari qalbi keng, ichki dunyosi g‘oyatda boy, o‘z ishiga, e’tiqodiga qat‘iy ishongan kishilardir. Ayniqsa, Edigey yozuvchi ijodida mazkur asardagi obrazlarning tajassumi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchi bu obraz orqali o‘zida bunyodkorlik g‘oyalarini tashuvchi yangi inson idealini ehtiros bilan, zavq-shavq bilan, san‘atkorona tadqiq etgan. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, Edigey hayotiy real obraz bo‘lishi bilan birga unda insonda uchrab turadigan ojiz tomonlar ham yo‘q emas. Chunonchi, u xotini Ukkubolani qalbdan sevgani holda qo‘shnisi Abutolibning rafiqasi Zarifaga ko‘ngil qo‘yadi va muhabbat dardiga muhtalo bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, jahl otiga minib joni-

---

<sup>27</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи. 2011 й. 182-бет.

<sup>28</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи. 2011 й. 175-бет.

dildan yaxshi ko‘rgan tuyasi Qoranorni asossiz kaltaklashda ham uning ojizligi sezilib qoladi”<sup>29</sup>.

U avvaliga bu holatni Abutolib va Zarifaning bolalariga bo‘lgan muhabbat, bu oilaga nisbatan hurmat va do‘stona munosabat deb qabul qilib, ularning qismatiga qalban achinadi. Lekin bora-bora uning qalbida Zarifaga nisbatan qandaydir iliq tuyg‘ular paydo bo‘lganini o‘zi ham anglamay qoladi. Yozuvchi Edigeyning Zarifaga befarq emasligini bunday ta’riflaydi: “Shu g‘ala-g‘ovur ichida bexosdan Edigey Zarifa naqadar latofatli ekanini payqab qoldi. Yomg‘ir Zarifaning qop-qora sochlarini yuzlari, bo‘yni, yelkalari uzra yozib tarar, boshidan to oyog‘igacha sizib suv ko‘ylagini badaniga yopishtirib, miqti gavdasini, kifti, qo‘llarini bo‘rttirib, sonlariyu yalang oyoqlarining boldirlarigacha ajratib ko‘rsatar edi. Ko‘zlari esa baxtiyorlikdan nur sochib chaqnab, kumush tishlari tobora yarqirar edi”<sup>30</sup>. U Zarifaning ushbu qiyofasini hattoki tushlarida ham ko‘radi. Bu esa Zarifaga nisbatan sevgi kurtaklari paydo bo‘lganidan darak edi. Uning qalbida ikki tug‘yon avj urardi. Biri bu oila oldidagi odamgarchilik hissi, ya’ni ularni oyoqqa turishlari uchun yordami bo‘lsa, ikkinchisi Zarifaga bo‘lgan muhabbati. Ana shu ikki tuyg‘u uning qalbida o‘zaro kurashardi. Hammaga maslahat berib, ko‘pchilikning og‘irini yengil qilgan Edigey bu masalada endi o‘zi ojiz bo‘lib qoladi. Uning Zarifaga bo‘lgan sevgisi botiniy, uyatli, lekin o‘z o‘rnida sof va samimiy. Abutolibning o‘limidan so‘ng Zarifa Edigeyga bidirmay bolalarini olib uzoq o‘lkalarga ketadi. Bu esa Edigey qalbining yaralanishiga sabab bo‘ladi. U Zarifa va bolalariga shunchalik o‘rganib qolgan ediki, hatto ularsiz bu yerlarda yashashni ham tasavvur qila olmasdi. Lekin Zarifa Edigeyni sevarmidi degan savol o‘ylantiradi kishini. Buni yozuvchi mavhumligicha qoldiradi, xiyonatga boshlamaslikka harakat qiladi va Zarifani Edigeyning qalbidan yiroqlarga eltib qo‘yadi. Edigey ikki o‘t orasida qoladi: Ukkubola va farzanlari, yoki Zarifa. Shu asnoda ko‘ziga hech narsa ko‘rinmay qoladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, alamini Qoranordan oladi. Bu holatni yozuvchi shunday ta’riflaydi: “Uni

---

<sup>29</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи. 2011 й. 181-бет.

<sup>30</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 127-бет



qamchisida savalab, og‘ziga kelgan so‘z bilan so‘kar edi”<sup>31</sup>. Uning ahvoli faqat Kazangapgagina ayon edi. U bu yerlardan oilasini olib ketmoqchi ekanligini aytganda, Kazangap uni o‘z fikridan qaytarishga harakat qiladi: “Xo‘sh, ketding ham deylik, lekin o‘zingni tark eta olmaysan-ku. Qayoqqa uloqmagin shuringni qurita olmaysan. Qayoqqa borsang, u sen bilan birga boradi. Yo‘q, Edigey, agar sen erkak bo‘lsang, mana shu yerda o‘zingni o‘zing yengib ol. Ko‘chib ketish mardning ishi emas”<sup>32</sup>. Kazangap Edigeyga nasihat o‘qtirish befoyda ekanligini tushunib, yuqoridagi gaplarini inkor etgan holda: “Sirasini aytganda, nega men senga saboq berishim kerak, Edigey. Xuddi menga biron naf tegayotganday?! O‘zing ham oq-qorani yaxshi ajratasan, gapning indallosini aytganda, sen – Raymali og‘a, men esa Abdilxon emasmiz. Qolaversa, atrofimizda birgina qaqqaygan daraxt ham yo‘qki, unga seni qo‘l oyog‘ingdan bog‘lab qo‘ysam!”<sup>33</sup>. Shu fikrning o‘ziyoq Raymali og‘a va Begimoy rivoyatining markazida turgan bosh g‘oya asosini belgilab beradi. Bu rivoyat orqali yozuvchi sof muhabbat mavzusini qalamga oladi. Sevgi-muhabbat Edigey bilan Raymali og‘a obrazlarini o‘xshash tomonlarini belgilab bersa, ular orasida bir-biriga zid bo‘lgan ayrim holatlar ham yo‘q emas. Raymali og‘aning Edigeydan farqli tomoni shundaki, uning oilasi, farzandlari yo‘q edi. Bu yo‘lda u hech ikkilanmay Begimoyga erishishi mumkin edi. Ular orasiga ukasi va qabiladoshlarining eskicha qarashlari, o‘sha qabila an‘analarini hisobga olmaganida, to‘sqinlik qiladigan hech qanday kuch yo‘q edi. Haqiqiy sevgi kimgadir erta, kimgadir kech kirib kelishi, kelganda ham yuraklarni o‘rtab, bedavo dard kabi azoblashi bu rivoyat asosini tashkil etadi. Lekin har doim ajlodlar an‘analariga hurmat bilan qaraydigan va vijdon amri bilan ish tutadigan Edigey bu borada ancha mushkul yo‘l orasida qolganini o‘zi ham anglab yetadi. Edigey uchun Ukkubola va farzandlari ham o‘z o‘rnida aziz. Hatto uning sevimli Ukkubolasi homiladorlik vaqtida boshidan o‘tkazgan va Oroidagi “oltin mekri” deb ataluvchi kamyob baliq turi haqidagi voqeani eslashning o‘zi kifoya. Ukkubola homiladorlik vaqtida uning tushiga Oltin mekri degan baliq

---

<sup>31</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 224-бет

<sup>32</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 227-бет

<sup>33</sup> Ўша асар. 228-бет.

kiradi. U baliqni ushlab oltin tangalarini siypalamoqchi bo‘libdi, lekin baliq tutqich bermasmish. Ukkubola uyg‘onib ketib, anchagacha bu baliqni ko‘rgisi kelib, uni bir siypalashga bosh qorong‘u bo‘libdi. Edigey esa buni sezib, xotining bu istagini amalga oshirish uchun qishning izg‘irin nafasi sezila boshlagan paytda Orol dengizi tomon yo‘l oladi. Bu baliqni tutish hammaga ham nasib qilavermas ekan. Oltin mekrini tutish uchun ancha vaqt kutishga to‘g‘ri keldi. Lekin Edigey sabr bilan kutdi: “Yo‘q, men oxirigacha kutaman. Aytmagan bo‘lsam ham, xotinim oltin mekre uchun ketayotganimni bilardi. Bola ona qornida qiynalmasligi uchun bu baliqni tutishim kerak. Onasi oltin mekre ni qo‘liga olib, ushlab ko‘rsin, axir mening bolam shuni istayapti. Ona ham shunga tashna, men otasi bo‘lib turib ularning xohishini bajo keltirmasam, otaligim qoladimi!”<sup>34</sup>. Shu o‘y-hayollar bilan u oltin mekre balig‘iga iltijo qiladi va Ukkubolasiga oltin mekre balig‘ini tutib keltirib beradi. Ukkubola esa baliqni xuddi bolani quchog‘lagan kabi ko‘ksiga bosdi. Murodiga yetgan xotini eriga minnatdorchilik bildirib, baliqni tezroq suvga quyib yuborishini aytadi. Yuqorida Edigeyning “otaligim qoladimi” degan o‘y-hayollarining o‘ziyoq uning xotini va tug‘ilajak farzandiga mehri qanchalik balandligini va sevgisi esa qanchalik ustunligini ko‘rsatib turibdi. Shundan kelib aytadigan bo‘lsak, Edigey Ukkubolani o‘z o‘rnida oila boshlig‘i, oilasi oldidagi mas‘uliyatni his qilgan holda sevgan. Lekin Raymali og‘aga o‘xshab unga ham o‘zi kutmagan pallada o‘zga bir his-tuyg‘u qalbida nish uradi. Ana shu hislar uni qalbini yaralaydi, Raymali og‘a singari telbalik ko‘chasiga kiradi. Urush kunlarini boshidan o‘tkazgan, o‘z yurtidan ayro yashagan, Sario‘zakdek odam qadami yetmagan joylarga vatan qilishga irodasi yetgan inson o‘z qalbini, his-tuyg‘ularini boshqarishga ojizlik qilib qoladi va shunda Raymali og‘aning qo‘shig‘ida o‘z dardini, hasratu-armonlarini eshitganday bo‘ladi.:

Yozuvchi Edigeyni sevimli ayolidan ayrilganini shunday chiroyli o‘xshatishlar bilan tasvirlaydiki, kitobxon ham Kazangap singari Edigey ruhiyatidagi tushkunlik holatini yurakdan his qilib, uni tushuna boshlaydi: “Edigey Bo‘ron sevimli ayolidan ajralgan o‘sha kuni shu qadar tushkunlikka

---

<sup>34</sup> Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 199-бет

tushib, umidsizlikdan tiz cho‘kdiki, hech bir qirol, hech bir imperator, hech qanday hokimi mutlaq taxti-baxtidan ajralib qolgan chog‘da ham yorug‘ dunyo qarshisida bunchalik g‘am-g‘ussa bilan tiz cho‘kmagandir?!”<sup>35</sup>.

Abutolib Quttiboevni so‘roq qilgani kelgan chag‘irko‘z leytenant Tansiqboev, uni xotiralari bitilgan, og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan rivoyatlar qayd etilgan daftari orasidan Raymali og‘a haqidagi rivoyatni o‘qib, xalq tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarni ma’naviy buzuqlikka xizmat qiluvchi cho‘pchaklar deb hisoblaydi: “Aljib qolgan qari chol o‘n to‘qqiz yashar qizni sevib qoladi. Buning nimasi yaxshi? Bu Quttiboev deganing dushmangina emas, ma’naviy buzuq kishi ham ekan-ku! Bu iflosliklarni ipidan-ignasigacha yozib olganiga qaray”<sup>36</sup>.

Edigeyning Zarifaga bo‘lgan muhabbati – bu hayot sinovi edi. Lekin hamma dardga vaqt davo deganlaridek, Edigey qalbidagi ushbu jarohat ham asta-sekin tuzala boshlaydi. Shunday qilib, Raymali og‘a va Begimoy haqidagi rivoyat asar bosh qahramoni Edigey Bo‘ronning ichki kechinmalari asosida vujudga kelgan rivoyat hisoblanadi.

Raymali og‘a o‘z zamonasining dong‘i ketgan oqini bo‘lib, u yoshligini el-yurt yig‘inlarida, to‘y-tomosholarda do‘mbira chertib o‘tkazdi. Unga yaratgan tomonidan ham shoirlik, ham bastakorlik, ham nafasi o‘tkir oqinlik in‘om etilgan edi. Shu tariqa umrini o‘tkazib, qarilik fasliga yetib kelganini ham anglamay qoladi. U mol-dunyo yig‘may, boshini ikki qilmay yashadi. Qariganda uni kichik ukasi Abdilxon o‘z qaramog‘iga oldi. Raymali og‘a esa endi faqat qarilik, oxirati to‘g‘risida o‘ylaydigan bo‘lib qoladi. Agar o‘sha to‘yda Begimoyni uchratmaganda umrining qolganini ham shu tariqa osoyishta o‘tkazgan bo‘larmidi? Begimoy endigina o‘n to‘qqiz yoshga to‘lgan, ovozinig sehri Raymali og‘adek otin bilan bahslashishga qodir juvon. Raymali og‘a taklif qilingan ma‘rakaga Begimoy ham ishtirok etadi. Qari otin o‘tirgan davraga Begimoy do‘mbirasini qo‘ltiqlagancha kirib, o‘z uzrini aytib, yuragidagi sevgi izhorlarini kuy-qo‘shiq orqali Raymali

<sup>35</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 225-бет

<sup>36</sup> Ўша асар. 161-бет

ogʻaga yetkazadi. Raymali ogʻa undan kimligini soʻraganda qiz shu tarzda oʻzini tanishtirib ketadi: Yoshligidan Raymali ogʻani sevishini, uning ortidan izma-iz yurib kuy va qoʻshiqlarini yod olganini, tezroq ulgʻayib visol lahzalarini kutganini qoʻshiq bilan hirgoyi qiladi. Shu tariqa ular orasida qoʻshiq aytishuvi boshlanib ketadi. Begimoy qari oqinning yuragiga chugʻ soladi. Endi esa Raymali ogʻaning soch-soqolidagi oqlar ham sevgisiga halal berolmasdi. Raymali ogʻa Begimoyni shu paytgacha uchratmagani, qariganda uning diydoriga erishib, ovozini eshittirib azobli rohatga duchor etgani – bularning barchasi tangrining qasosidan deb biladi.

Rivoyatda Raymali ogʻa hayoti fojea bilan yakun topadi. Raymali ogʻaning fojiali sevgisi oʻsha qabila anʼanalarini, urf-odatlarini oyoq osti qilish bilan barobar edi. Ular Raymali ogʻani esini yeganlikda, behayolikda va jinnilikda ayblab, toʻylarda sangʻishni, Begimoy bilan hayosizllarcha koʻylashni bas qilishini talab qilishadi. Ular Raymali ogʻaning qobiliyatini “doʻmbirani qornini qashlab masharabozlik qilish” deb kamsitishadi. Uning qoʻshiqqa boʻlgan muhabbatini esa “birovlarning koʻnglini xushlash” deb masʼhara qilishadi. Raymali ogʻa aytganidek: “Axir koʻy quyilib kelsa, kuylamoqning nima aybi bor? Hayot menga umr shomida sevgi hadya etgan boʻlsa, sevmuqning nima uyati bor? Bu dunyoda sevishganlar baxtiyorligidan ham ortiq narsa bormi? Modomiki, sizlar kechikib topgan sevgim quvonchini tap tortmay kuylaganim uchungina meni telbaga chiqarayotgan boʻlsalaringiz, unda sizlardan yuz oʻgirganim boʻlsin! Olam keng, kunim sizlarga qolgan boʻlsa, boshim oqqan yoqqa ketaman. Hoziroq Saralaga minaman-da, sevgilimga boraman yoki boʻlmasa koʻy-qoʻshiqlarimiz feʼl-atvorimiz bilan sizlarni bezovta qilmaslik uchun u bilan birga boshqa oʻlkalarga bosh olib ketamiz”<sup>37</sup> deydi. Lekin Raymali ogʻaning ukasi Abdilxon avval uning ijod ilhomi boʻlmish doʻmbirasini sindirib tashlaydi. Soʻngra uning “ajralmas hamrohi, hammaga maʼlum va mashhur” Sarala nomli otini boʻgʻizlab, yerni issiq qonga bulgʻaydi va akasini sevimli yori visoliga erishishiga toʻsqinlik qiladi. Abdilxon singari eskilik sarqiti bilan yashaydigan qabila aʼzolari ham tor

---

<sup>37</sup> Ўша асар. 238-бет

doiradagi eski urf-odatlar deb Raymali og‘aning qalbida kech nish urgan sevgi alangasini so‘ndirmoqchi bo‘lishadi. Raymali og‘a esa tor milliy an‘analar zanjirini uzib, haqiqiy sof muhabbat sari dadil isyon ko‘tarishga tayyor edi. Ushbu rivoyat qo‘shiq orqali qalblari tutashgan ikki oshiqning sof, pokiza muhabbatini va qaynoq sevgisini tarannum etgan rivoyat hisoblanadi. Rivoyatda faqatgina Raymali og‘a va Begimoyning qo‘shiqlaridagina emas, balki rivoyatning har bir satridan muhabbat kuyi, chin insoniy his-tuyg‘ular ashulasi yangrab turgandek tuyuladi. Bu kuy hamma-hammani: tuyda yig‘ilgan yoshu qarini, piyodayu suvoriyni ham o‘ziga maftun etadi. Raymali og‘aning kuylagan qo‘shiqlari go‘zal hayot uchun, chinakam insoniy baxt uchun mardonavor kurashga da‘vat etadi. Hayot go‘zalligi bo‘lmish otning o‘ldirilishi va do‘mbirani sindirish faqatgina qalbi insoniylik tuyg‘ularidan yiroq bo‘lganlarningina qo‘lidan keladi. Do‘mbirani sindirib, Saralani o‘ldirib, Raymali og‘ani o‘zini esa qayin daraxtiga bog‘lab qo‘yishadi. Raymali og‘a ukasi Abdilxon tomon yuzlanib birdan kuylab yubordi: “So‘nggi zulmat – barin olib tun ketar, tong bo‘zarib yana yorqin kun kelar. Biroq, mening yorug‘ kunim qorong‘u. Badbaxt inim, Abdilxon, sen quyoshim o‘chirding, yorug‘ kunim tun etding. Yoshim qaytib, rabbim menga sevgi ato etganda, dilbandimdan judo etib, motamsaro gerdayding, quvonchingning boisi ham shundadir. Ammo sho‘rlik inim Abdilxon, qalxim urishdan to‘xtab, nafasim chiqmay qolgunga qadar qanday sevgi bilan band bo‘lib, qanday sevgi bilan yashayotganimni bilganingda edi! Sen meni daraxtga bog‘lab tashlading, biroq men bu yerda emasman, ukam, Abdilxon. Bu yerda jismimgina bandi, xolos, jonim – dilim esa sabo kabi keng dalani quchib, yomg‘ir kabi yerga singib ketmoqda. Men har lahzada u bilan birga, uning qoni, tandagi joni bo‘lib yashayman. Subhidamda noz uyqudan turganda yovvoyi kiyik kabi tog‘dan sakrab tushaman va uning xiromon qadamlar bilan o‘tovdan chiqishini kutib qoyada intizor bo‘lib turaman. Dilbarim kechuvdan o‘tmoqqa chog‘lansa, ot choptirib suv kechsa, men uni lovvullagan yuzlariyu qo‘llariga tuyoq ostidan otilib

chiqqan tomchilar bo‘lib sachrayman. Dilbandim ko‘ylaganda men uning dilbar qo‘shig‘i bo‘lib yayrayman”<sup>38</sup>.

Shunday qilib, Raymali og‘ani tanasi daraxtga bog‘langan bo‘lsa-da, qalbi yor visoliga erishadi, ular ruhan topishadilar. Raymali og‘aning sevgisi shu tariqa fojia bilan yakun topadi.

Xullas, “Asrga tatigulik kun”da manqurtlik ma’naviy tubanlik ramzi sifatida ifodalansa ham sof insoniy barkamollik mag‘lubiyatga uchrasa ham u hamisha g‘olibdir.

---

<sup>38</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 240-бет

## II BOB. “OQ KEMA” – MA’NAVIY YETUKLIK VA TUBANLIKNING OLTIN MUVOZANATI.

### 2.1. “Oq kema”dagi qahramon tasvirida ma’naviy yetuklik va tubanlik.

Aytmatov asarlarida tarixiy va zamonaviy mavzular bir-biri bilan uygʻunlashib, biri ikkinchisini nurlantirib turadi. Bu asarlarda talqin etiladigan mavzuning oʻzi ham shunchaki tasvir etilmasdan, yuqorida qayd etilganidek, afsonalarga, ertaklarga, rivoyatlarga oʻrab beriladi. Boshqacha aytganda, ertak, afsona va rivoyatlar yozuvchi uchun jonli poetik haqiqat boʻlib, undagi badiiy mushohadaning oʻziga xos xususiyatlaridan biri ham xuddi ana shunda namoyon etiladi. Yozuvchi bugungi kunning muhim masalalarini qalamga olar ekan, xalq ogʻzaki ijodining epik-falsafiy imkoniyatlaridan ham samarali foydalangan. Ch.Aytmatov asarlarida koʻp qoʻllaniladigan bu oʻziga xos xususiyat uning asarlarining joziba kuchini va estetik qimmatini oshirishda muhim rol oʻynagan. Uning “Oq kema” qissasi ayniqsa bunga yaqqol misol boʻla oladi<sup>39</sup>.

“Oq kema” qissasidagi voqealar rivoji Santosh darasida boʻlib oʻtadi. Qissani yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu yozuvchining fantastik toʻqima asosida yaratilgan ijod mahsuli emas, balki bu voqealar qisman yozuvchiga yaqinroq. U qachonlardir shu darada boʻlib, bugʻular haqidagi haqiqatni pichan tashiyotgan haydovchi yigitdan eshitadi va bu voqeani oʻz hayoliy uydirmalari asosida boyitib, hajman kichik, mazmunan yirik asarni dunyoga keltiradi. Bu asar yozuvchining oʻz hayoliy toʻqimalari bilan bir butunlikni ifoda etgan nodir manba hisoblanadi.

“Oq kema” tom maʼnodagi gʻoyaviy, badiiy xalqchil asardir. Xalqchilik – sanʼat va adabiyotning badiiyligini belgilovchi muhim fazilatlardan biri. Badiiy asarning xalqchilik характери, birinchidan, xalq hayotining eng dolzarb masalalarini oʻrtaga qoʻyish, har bir voqea-hodisani xalq manfaatlarini nuqtai-nazaridan yondashib, ilgʻor dunyoqarash va yuksak gʻoyaviylik asosida yoritish, ikkinchidan, keng xalq ommasi uchun tushunarli boʻlgan badiiy til va uslubdan,

---

<sup>39</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й. 145- б

rang-barang shakl va janrlardan samarali foydalanish kabi muhim prinsiplar bilan belgilanadi<sup>40</sup>.

Yozuvchilik ijodkordan katta hayotiy tajribani taqozo etadi, albatta. U hayotda turfa xil kechinmalarni boshidan kechiradi. Aytaylik, och-yalong'och, nochor bir kimsaning ruhiy olamini haqqoniy chizish uchun ochlik nimaligini bilish, yoki qor bosib qolgan kishi kechinmalarini ifodalash uchun, hech bo'lmaganda shu mudhish holatni tasavvur eta olish kerak, albatta. Kishi o'zi bilmagan, ko'rmagan hodisalarni yozsa, na o'quvchini ishontira oladi, na yozganlari uni hayajonga soladi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda xalq dardi bilan yashash, hayotning ichki to'lqinlari-yu butun ikir-chikirlarigacha mushohada etish Aytmatov ijodining bosh prinsipi hisoblanadi<sup>41</sup>.

Yozuvchi "Oq kema" qissasida o'zining boshidan o'tkazgan voqealarni asar ruhiga singdirishga harakat qilgan. Otasi "xalq dushmani" sifatida ayblanib qamoqqa olinganida, uning ham yoshligi asar qahramoni singari turtkilashu-hurliklar, ota sog'inchi ila o'tib, uning qaytib kelishini umid bilan kutgan onlari shu asarning yaratilishi uchun tagzamin vazifasini o'tagan bo'lsa ajabmas.

Asarda tasvirlanishicha, avlodlarning eng yaxshi an'analari ruhida tarbiyalanayotgan va yuksak ahloqiy fazilatlarini o'zida shakllantirayotgan asar qahramoni - yetti yashar bolaning vijdoni hali hech narsa bilan zaharlanmagan, tabiatday musaffo. U hayot to'g'risidagi tushunchalarni, inson va uning yumushlarini o'zining ana shu beg'ubor - sof vijdoni bilan qabul qiladi, ana shu vijdon tarozisida o'lchaydi. Uning murg'ak qalbi hech qanday yolg'onni, hech qanday yovuzlikni qabul qilolmaydi, aksincha, hayotdagi juda ko'p chigal savollarga javob izlaydi. Lekin bu savollarga tayin bir javob topa olmay qiynaladi. Natijada bir muammo ikkinchisini keltirib chiqaradi. Bola esa hayotga "bola ko'zi" va o'zining mas'um ruhiy dunyosiga yaqin bo'lgan buvasining "nuqtai nazari" bilan qaraydi. O'quvchi nurday toza orzular og'ushida yashovchi, Ona bug'u hamda Oq kema haqidagi ertaklarning ertak emas, balki chin ekaniga

---

<sup>40</sup> Ўша асар. 138-бет.

<sup>41</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й. 142- б



astoydil ishongan va ularning ruyobga chiqishiga ko‘z tutgan Bolani sevib qoladi va unga bo‘lgan muhabbati cheksiz ortadi<sup>42</sup>.

Yozuvchining “Oq kema” qissasi poklik va adolat, xunrezlik va uning axloqiy ildizlari, milliy an’analar va insoniy qadriyatlar, tarix va bugungi kun talqiniga bag‘ishlangan navbatdagi eng go‘zal asarlaridan biridir. Asarda bobosi kabi oqko‘ngil, ertaklari kabi samimiy va ularning ro‘yobga chiqishiga ko‘z tutgan bola; nihoyatda halol, samimiy va haqgo‘y bo‘lishiga qaramay qizi, nabirasi tinchligi va osoyishtaligi deb o‘zlariga qaram va mute bo‘lib qolgan, shu bois, hatto Ona bug‘uni o‘ldirishgacha borib yetgan Mo‘min bobo; odam qadri-yu tabiat, milliy qadriyat-u, urf-odat barchasiga bir pul deb qaraydigan, o‘zgalar ustidan hukmronlik qilishni kasbga aylantirgan vahshiy sifat O‘razqul singari obrazlarga duch kelamiz.

Asar qahramoni Bola xarakterining ayrim qirralari haqida oz bo‘lsada to‘xtalib o‘tdik. Bolaning birdan bir suyangan insoni bu uning milliy qadriyatlar ruhida bolani tarbiyalagan, bolaning ertaklari muallifi bo‘lmish Mo‘min chol obraziga ham ta’rif berib o‘tish o‘rinlidir. Yozuvchi Mo‘min chol xarakterini quyidagicha tasvirlaydi: “...Mo‘min chaqqon bo‘lib tug‘ilgan. Ehtimol, uning yolg‘iz ustunligi shunda ediki, u qanday o‘tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarning oldida obro‘si to‘kilishidan cho‘chimasdi. Mo‘min mana shu ma’noda, o‘zi sezmagan holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko‘p odamlarni kasallik emas, o‘z nazdida o‘zini o‘zligidan kattaroq qo‘yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, baobro‘, xushro‘y, buning ustiga qattiq qo‘l, adolatli va jasur degan nom ham chiqarishni kim istamaydi) Mo‘min esa bunday emasdi”<sup>43</sup>. Mo‘min chol Ona bug‘u avlodidan bo‘lib, bu bilan u g‘oyat faxrlanar va bolani ham shu ruhda tarbiyalashga harakat qilardi.

Yozuvchining o‘z xalqiga, xalqining an’analariga sodiqlik xolatlarini asarlariga, ulardagi obrazlarga singdirishga harakat qiladi. “Oq kema” qissasida

---

<sup>42</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011. 141- б

<sup>43</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 201-б

ham bu kabi holatlarni uchratish mumkin. Masalan, “Faqat bir narsa Mo‘minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma’rakasini o‘tkazish uchun qarindoshlar to‘planadigan kengashga uni chaqirishni unutilib qo‘yishsa... u qattiq ranjir va buni unutilmay azob chekardi, gap - uni chetlab o‘tganlarida emas, u kengashda bari bir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatning paymol bo‘lgani edi”<sup>44</sup>. Yoki “Mo‘min o‘rmon mahkamasining odatdagi furajkasini kiyishga or qilardi (“Nima, biron-bir boshliqmanmi? Men o‘zimning qirg‘iz qalpog‘imni boshqa hech qanaqasiga almashmayman”)<sup>45</sup>”.

Qissadagi O‘rozqul obrazi ham o‘ziga xos. U salbiy obraz sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, ba’zan o‘quvchi uning qismatiga ham achinadi. O‘rozqul farzand dog‘ida kuyib o‘rtanadi. Unga tabiat bir tirnoqni ham ravo ko‘rmadi. U yolg‘iz qolganida, ayniqsa, ichib mast bo‘lganida bu kemtik qismatidan nola qiladi, hech kimga bildirmay yig‘laydi. U shum taqdirga achchiq qilib xotinini uradi, bolani yomon ko‘radi, Mo‘min cholga azob beradi.

Oq kema qissasida yozuvchi bir tomondan milliy qadriyatlarni yuqori o‘ringa qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan tabiatni muhofaza qilish muammolarini asardagi rivoyatlar va voqealar rivoji orqali qalamga oladi.

Aytmatovshunos olim Pariza Mirzaahmedova o‘z maqolalaridan birida Chingiz Aytmatovning tabiat va inson munosabatlari haqida qo‘yidagi fikrlarni bildiradi: “Bugungi davrga kelib nafaqat insonlararo munosabatlar, balki Inson bilan Tabiat munosabatlari ham dolzarb muammoga aylandi. Davr bilan hamnafas, hamqadam, ehtimol, undan o‘n yillar oldinda boruvchi ma’naviy yalovbardor sifatida Aytmatov ham bu mavzuga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, uning “Oq kema” asarida hayotdagi o‘ta muhim masalar qatorida Inson va Tabiat munosabatlari mavzusi ham yusak badiiy mahorat bilan qalamga olingan bo‘lib, tabiatga nisbatan jinoyat pirovard-natijada insoniyat uchun halokatli bo‘lishi mumkinligi tasvirlanadi. Qissaning bosh qahramoni Bolakay yovuzlikni aslo qabul

---

<sup>44</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й.. 202-бет

<sup>45</sup> Ўша асар. 206-бет.

qila olmaydi. Adib toki insonlarda bolalarga xos bokiralik, vijdoniylik mavjud ekan, haq-adolatning umri boqiy degan g'oyani ilgari suradi. "Chunki, - deb yozadi Aytmatov, - insonga xos bolalarcha beg'ubor vijdoniylik bamisoli urug'dagi murtak-o'zakka o'xshaydi, murtak-o'zagi bo'lmagan urug' unib chiqmaydi"<sup>46</sup>.

Milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan bola tabiatning har bir nushasidan bahramand bo'lib yashaydi. Qarag'ay daraxtlarning kesib pullanishi, yoki qirg'iz xalqining volidasi bo'lmish Ona Bug'uning o'ldirilish holatlarini ham bola o'z psixik holatiga sig'dira olmaydi va bu yovuzliklarga burkangan boqiy hayotni tark etish yolini tanlaydi.

Yozuvchi o'z asarlarida hayvon va qushlar obrazlarini, shuningdek, inson psixologizmini yoritishda xizmat qiladigan turli detallarni qo'llash jarayonida ularning ostida qandaydir ramziylikni yashirishga harakat qiladi.

Aytmatov asarlarida, - deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor G'aybulla as-Salom, - har gal "kosaning tagida nim kosasi" bo'ladi. "Oq kema"da ham ham har bir tekst ostida qandaydir muddao, "ost tekst" bor. Shu tufayli ushbu qissani obdon o'ylab mutolaa qilinmasa, yoxud aksincha, uni o'qib chiqqandan so'ng "bo'lib o'tgan" voqealar xususida jiddiy o'ylab ko'rilmasa, ya'ni muallifning muddaosi "aql ko'zi" bilan ilg'ab olinmasa, kitobni umuman o'qib o'tirishning ham hojati qolmaydi. Chunonchi, qissada ro'y-rost aytilmagan, ammo "nazarda tutilgan" muddao – har bir oilaning buzilishidan dastavval farzandlar jabr ko'radilar (bu o'rinda esa bola halok bo'ladi) – degan tezis asosida hajman ushbu qissadan bir necha barobar katta ilmiy tadqiqot ham yaratish mumkin edi. "Oq kema" esa o'zining ana shunday qisqaligi, ya'ni unda hamma narsaning "aytilmaganligi" bilan ma'nodor va qimmatlidir"<sup>47</sup>.

Yozuvchi badiiy asarda rivoyatlarni o'z o'rnida keltirib o'tishdan maqsadi ham biror ramziylikni qahramonlari obrazida ifodalashdan iboratdir. Ramz (arabcha – "imo, ishora qilmoq") adabiyotda keng foydalaniladigan tasvir usullaridan biri bo'lib, odam tomonidan aniq tasavvur etilishi mushkul bo'lgan

---

<sup>46</sup> Мирзаахмедова П. Давримиз алломаси. Жаҳон адабиёти журнали. 2004-йил, 3-сон. 145-бет.

<sup>47</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й. 143- б

hodisa yoki tushunchalar ifodasi uchun yaqqol ko‘rinadigan narsalarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishidir. Masalan, sher – mardlik, bo‘ri – ochko‘zlik, bulbul – oshiqlik ramzi hisoblanadi<sup>48</sup>.

Chingiz Aytmatov deyarli ko‘pchilik asarlarida ushbu an’anaga tayangan holda ish yuritadi. “Ularda real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalar bir-biriga qo‘shilib-chatishib ketadi. Tulki, bo‘ri, it, tuya, ot, kalxat, baliq singari xonaki va yirtqich hayvonlar o‘ziga xos “adabiy personajlar” bo‘lib gavdalanadi” degan edi professor G‘.Salomov<sup>49</sup>.

Adibning nafaqat “Oq kema” qissasida, balki uning deyarli barcha asarlarida ramziylik bilan bog‘liq holatlarga duch kelish mumkin. Masalan, “Asrga tatigulik kun” dagi Edigeyning tuyasi Qoranor va Kazangapni dafn etish uchun yo‘lga chiqqanlarga sherik bo‘lgan Yo‘lbars nomli itni olib qaraydigan bo‘lsak, asarning boshidan oxirigacha vafodorlik, sadoqat ramzi sifatida talqin etilganini guvohi bo‘lamiz.

Yozuvchining “Oq kema” qissasida bir necha o‘rinlarda obrazlar zamirida yashiringan ramziy holatlarni uchratish mumkin. Qissadagi Bola orzu qilgan, so‘ngi kunlarigacha intiq bo‘lib kutgan Oq kemani olib qaraymizmi, yoki bobosi sovg‘a qilgan portfel va durbinni olamizmi, yoyinki daryoning bo‘yidagi bola o‘zicha nomlagan harsang toshlarni, yoki “yovuz”, “sevimli”, “botir”, “hurkak” o‘tlarning ostida ham yozuvchi psixologik nuqtai nazardan qandaydir ramziylikni yashirgani asarning badiiy qimmatini oshirishda xizmat qilgan.

Bola o‘z hayolida baliqqa aylanib, oq kema tomon suzib borish jarayonini tahlil etadigan bo‘lsak, bu yerda biz baliqni erk va kuch-qudrat, Oq kemani esa – to‘kislik, mehr-oqibat, diydor ramzi deya olamiz.

“Oq kema” qissasi etti qismdan iborat bo‘lib, uning to‘rtinchi qismi bevosita “Shoxdor Ona Bug‘u” hikoyasiga bag‘ishlangan. Qissada asosiy bo‘g‘inga qo‘yilgan ushbu rivoyat asardagi barcha epizodlarni o‘z atrofiga birlashtirgan holda voqealar rivojini tashkil etgan.

---

<sup>48</sup> Ўзбекистон Миллий Энсиклопедияси. 7-том. -Т.: 247-бет.

<sup>49</sup> Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. Қиёмат. Романлар. -Т.: 1989 йил 548-бет

“Oq kema” qissasining muhim fazilatlaridan biri, unda realizm bilan romantikaning, real ifodalar bilan ramziy usullarning, hayot bilan ertakning uzviy birikib ketganligidir. Ana shularning hammasini yagona bir badiiy g‘oyaga birlashtiruvchi kuch Shoxdor ona bug‘u obrazidir. Boshqacha aytganda, ona bug‘u to‘g‘risidagi xalq rivoyati povestning umumiy obraz sistemasida yetakchi mavqeni egallab, konfliktni hal qilishning o‘ziga xos yo‘lini ham oldindan belgilab bergan<sup>50</sup>.

“Ona bug‘u” haqidagi voqea asarda ertak deb yuritilgan bo‘lsa-da, aslida moziydan, tarixdan, ya‘ni qirg‘iz xalqiga mansub bir qabilaning qirg‘in qilinishi haqida so‘zlaydi. Shu ma‘noda biz buni janr va mazmun jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, rivoyat janriga yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Ertakda ko‘proq fantastika ustunlik qilsa, rivoyatda esa uzoq o‘tmishda yuz bergan voqealar yarim haqiqat, yarim hayotiy uydirmaga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ertaklarda badiiylik kuchli bo‘lib, voqea va hodisalarni tasvirlash, yetakchi qahramonni ideallashtirish, voqealar rivojini bo‘rttirib, tinglovchiga estetik zavq bag‘ishlash yetakchi o‘rinda turadi. Ushbu rivoyatni ertakka o‘xshah xususiyatlari ham yo‘q emas. Lekin bu voqea yozuvchining o‘z eshitganlari asosida vujudga kelgani uchun va unda hayoliyot bilan hayotiy voqea qorishib ifodalangani uchun rivoyat turkumiga aloqador ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Romanda keltirilgan boshqa rivoyatlardan farqli bu rivoyat asarning g‘oyaviy yo‘nalishi bilan bog‘lanmasdan, balki asar syujetini yaxlitlashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Shoxdor ona bug‘u obrazi qirg‘izlarning milliy qahramoni, ezgulik, yaxshilik, mehr-oqibat, hayot va nafosat ramzi ekanligi bilan ajralib turadi.

Shoxdor ona bug‘u haqidagi rivoyatning qisqacha mazmuni qo‘yidagicha: Qadimda Enasoy daryosi bo‘yida turli xil elatlar istiqomat qilishardi. Ular g‘oyat og‘ir hayot kechirishar, chunki ular bir-birlariga adovat ko‘zi bilan qarar edilar. Ularning orasida qirg‘iz xalqiga mansub bir qabila yashardi. Qabilalar bir-

---

<sup>50</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматовнинг олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011. 144- б

birlariga hujum qilishib, mollarini haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarni o'ldirishar edi.

O'rmonda g'aroyib qush paydo bo'ladi va ularni katta baxsizlik kutayotganidan sayroqi ovozlari bilan ogohlantiradi. O'sha kuni qirg'iz qabilasi o'zining Botir Qulchi degan buyuk oqsoqolidan judo bo'lishadi. Oqsoqolni so'nggi yo'lga kuzatish uchun butun boshli qabila yig'iladi. Mana shunday qulay fursatdan foydalangan dushman qo'shinlari qirg'iz qabilasining ustiga bostirib kirib, biror tirik inson qoldirmay qirib tashlashadi.

Ular boy o'lja bilan o'z yurtlariga qaytishayotgan vaqtda, o'rmondan ikki bola – bir o'g'il va bir qiz qanday chiqib kelishganini payqashmaydi. Bu o'zboshimcha sho'x bolalar ota-onalaridan yashirincha ertalab yaqin o'rmonga qo'lsavat uchun po'stloq shilgani ketishgandi. Ular qaytishganda na onasini, na otasini, na opasini, na akasini tirik topa oldilar. Bolalar qurquvdan dushman ortidan yordam so'rab yugurishdi. Biroq tuyoqlarning dupur-dupuri ostida ularning ovozini hech kim eshitmadi. Ular yo'l yurishib dushmanlarning yurtiga yetib kelishadi. Bosqinchilar ularni tutib kimligini so'rabdi. Shunda ular bolalarning tilidan kim ekanligini payqab qolishadi. Bolalarni xon huzuriga olib borishadi. Xon cho'tir yuzli Baymoq kampirga qirg'iz zotini butunlay yo'qotishni buyuradi. Kampir bolalarni Enasoy daryosiga tik qirg'oqdan uloqtirayotgan vaqtida qaerdandir oppoq yungli ona bug'u paydo bo'ladi va bolalarni nobud qilmay unga berishini iltimos qilib so'raydi. Bug'uboy odamlar uning egiz bolalarini o'ldirishganini va u o'ziga bola izlab yurganini aytadi. Shunda kampir bug'uga bu fikrda qaytishini iltimos qiladi. Chunki vaqti kelsa, odamlar seni va bolalaringni ham o'ldirishi mumkin, deb aytadi. Lekin bug'u hech narsaga qaramay bolalarni uzoq yurtlarga kampirning roziligi bilan olib ketadi. U bolalarni yo'ldagi turli xatarlardan himoya qilib Issiqko'l degan yurtlarga yetib keladi. Bolalar bu yerlarni o'zlariga makon qilishib, ona bug'uning vasiyati bilan turmush qurishadi va ular farzandli bo'lishadi. To'ng'ich farzandlarini Shoxdor ona bug'u sharafiga – Bug'uboy deb atashdi. Bug'uboy o'sib-ulg'aydi, qipchoqlar avlodidan bo'lgan go'zal qizga uylandi, shu bilan Bug'uboy avlodi – Shoxdor ona bug'u avlodi

ko'paya boshladi. Ularning farzandlari ko'p bo'lib, qirg'iz avlodining ajdodlari sifatida, jannatmakon Issiqko'lda o'zlariga mangu makon topdilar. Bug'ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmas edi. Bug'uboy avlodlari bug'uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo'l berardi.

Yozuvchi Ona Bug'uning ramziy obrazi vositasida yaxshilik va ezgu ishlarning abadiyligi, ona bug'u kabi qahramonlarning nomi o'chmasligi, umri boqiyliги to'g'risidagi falsafiy qarashlarini ifodalash orqali Ona bug'u avlodlarining taqdirini yechishga harakat qilgan. Shunga ko'ra, ushbu rivoyatda mujassamlashgan badiiy fikr – inson hayotining mohiyati – ezgulikka xizmat qilish, hayot va tabiat gozalligini ulug'lash, jamiyat va kelgusi avlodlar oldidagi burch hissining buyukligiga imon keltirish roman syujetining boshidan oxirigacha hukmronlik qiladi.

Ona bug'u haqidagi ertakni bola o'z tilidan bobosi sovg'a qilgan portfelga hikoya qilib beradi. Ushbu rivoyatning mazmuniga e'tibor qilinsa, unda odamlarning mehr-shafqatdan yiroqligi, ulardagi diyonatu oqibatning yo'qolishi, odamiylikdan yiroqlashgani ularning boshiga turli kulfatlarning yog'ilishiga sabab bo'ladi. O'sha qabila a'zolari o'rtasidagi ichki nizolar ollohning g'azabini keltiradi va ular tavqu la'natga duchor bo'lishadi. Agar Shoxdor ona bug'u bolalarni cho'tir yuzli Baymoq kampirning qo'lidan qutqarib qolmaganda butun boshli qabiladan, xalqdan yer yuzida nishon ham qolmagan bo'lardi. Bug'uning qanchalik bag'ri kengligini, hattoki odamzot uning egizak bolalalarini o'ldirishganiga qaramay, uodamzot bolasini o'lim yoqasidan qutqarib olib, sut to'la yelinlari bilan siylash holatini yozuvchi mohirlik bilan tasvirlagan. U yomonlikka yaxshilik ila javob qaytaradi. Baymoq kampirning ogohlantirishidan so'ng ham u odamlardan yaxshilik kutadi. Lekin bug'u uylaganday bo'lib chiqmaydi. To'g'ri bug'uboy avlodidan bo'lgan bir mashhur boyning o'limiga qadar bug'ular barchaning e'zozida edi. Lekin ancha vaqtlar o'tgandan so'ng vaziyat o'zgaradi. Buning mantiqiy davomi sifatida esa adib yana bir rivoyatni keltirib o'tadi. Ikki rivoyat bir ketma-ketlikda kelib, bir-birini izohlab, to'ldirib turadi.

“Bug‘iboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi to o‘lguniga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo‘ylari, ming-minglab yilqilari bo‘lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho‘ponlar ham uning izmida edi. O‘g‘illari ota sha‘niga katta ma‘raka qilishdi. Ular bu ma‘rakaga yer yuzining hamma ma‘lum va mashhur kishilarini chaqirishdi. Mehmonlar uchun Issiqko‘l qirg‘og‘iga bir ming bir yuzta o‘tov tikdilar. Qancha mol suyildi, qancha qimiz ichildi, qanchalab qashqarcha noz-ne‘matlar berildi. Sanog‘iga yetib bo‘lmasdi. Boyning o‘g‘illari gerdayib yurishardi: Axir otadan bitmas-tuganmas meros qolganligini, farzandlar otani qanday hurmatlab, uning xotirasini qanday e‘zozlashlarini odamlar ko‘rib qo‘ysin-da...(“E bo‘tam, odamlar aql o‘rniga boyligini ko‘z-ko‘z qilishsa, bu qanday yaramaslik”).

Marsiya aytuvchilar esa, marhumning o‘g‘illari taqdim etgan arg‘umoqlarda yelib, sovg‘aga berilgan suvsar telpak va shoyi to‘nlarga o‘ralib, marhumni va uning merosxo‘rlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtashardi.

- Bu olamda bunday baxtli hayot va shukuhli ma‘rakani ko‘rgan bormi? – deb ko‘ylardi biri.

- Dunyo bino bo‘lgandan beri bunaqasi hali bo‘lmagan! – derdi ikkinchisi.

- Hech qaerda bo‘lmagan! Faqat bizdagina ota-onalarni shunday hurmatlashadi, ota-ona shon-sharafini yuksak tutishadi, ularning muqaddas nomini ulug‘lashadi, - kuylardi uchinchisi.

- Ey, qaqildoq marsiyachilar, nima deb valdirayapsiz! Olamda bu hotamtoylikning ta‘rifiga loyiq so‘z, marhumning shon-shuhratiga teng keladigan shuhrat bor ekanmi? – ko‘ylardi to‘rtinchisi...

Ular shu zaylda kecha-kunduz kim o‘zarga bahslashardi. ( E-e, bo‘tam, hofizlar hamdu sano o‘qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo‘shiqchidan qo‘shiq kushandasiga aylanishadi”).

Dovruq solgan ma‘raka ko‘p kunlik bayramday o‘tdi. Boyning maqtanchoq o‘g‘illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug‘u avlodidan ekanligini hamma bilishi uchun uning qabriga



bug‘u shoxini o‘rnatishni o‘ylab topishdi. (“E bo‘tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boyluk – takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug‘diradi”.)

Boyning o‘g‘illari ota xotirasiga ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yodgorlikni o‘rnatishni istashgani uchun ham hech nima ularga to‘sqinlik qila olmadi. Aytilgan so‘z – otilgan o‘q. Ovchilarni yo‘llashdi. Ovchilar bug‘u otib, shoxini tanasidan ayirishdi. Bug‘u shoxlarining tepaga taralib turishi ko‘kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o‘xshardi. Bug‘u shoxlari o‘g‘illarga yoqib tushdi: ularning har biri o‘n sakkiz butoqqa bo‘lingan – demak o‘n sakkiz yoshda ekan. Yaxshi! Ular shoxni qabr ustiga o‘rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Qariyalar hayratda qolishdi:

- Bug‘uni o‘ldirishga qanday haddingiz sig‘di? Shoxdor ona bug‘u avlodiga qo‘l ko‘tarishga kim jur‘at etdi?

Boyning merosxo‘rlari unga javoban:

- Biz o‘z yerimizdagi bug‘uni o‘ldirdik. Bizning saltanatimiz ostidagi yerlarda nimaiki qimirlagan, uchgan tirik jon zoti bo‘lsa, pashshadan tortib tuyagacha – hammasi bizniki. O‘zimizga qarashli jamiki narsalarni nima qilish-qilmaslikni o‘zimiz yaxshi bilamiz. Yo‘qolinglar! – deyishdi.

Xizmatkorlar qariyalarni qamchi bilan savalab, otga teskari mindirishdi-da, sazoyi qilib haydashdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug‘u avlodlarining boshiga katta baxsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o‘rmonlarda oq bug‘ularni ovlashga tushib ketdi. Bug‘u avlodidan bo‘lgan har bir kishi o‘z ajdodlari qabriga bug‘u shoxi o‘rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo‘lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug‘u shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam o‘rnida sanamay qo‘yishdi. Bug‘u shoxlari bilan savdo qilish, ularni oldindan g‘amlab qo‘yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug‘u avlodlari orasida shunday kishilar paydo bo‘ldiki, ular bug‘u shoxlaridan o‘lja yig‘ishni va pullashni hunar qilib oldilar. (“E bo‘tam, pul hukmron bo‘lgan joyda ezgu so‘zga o‘rin yo‘q, go‘zallikka o‘rin yo‘q”).

Issiqko‘l o‘rmonlarida bug‘ularga qirg‘in keldi. Ularga shafqatsiz bo‘lishdi. Bug‘ular qadam yetmagan joylarga qochdi, lekin u yerda ham qo‘yishmadi. Ovchilar tozilarni qo‘yib pistirma tomon haydashar, o‘zlari esa pistirmalarda berkinib yotib, yaqinlashgan bug‘ularni bexato otib olishardi. Bug‘ularni tuda-tudasi bilan qirishdi. Shox butoqlari eng ko‘p bo‘lgan bug‘uni kim otarga garovga bog‘lashardi’<sup>51</sup>.

Ushbu rivoyatni tahlil qilish asnosida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, farzandlar otalarini izzat-ikrom bilan dafn qilamiz deb ota-bobolari tomiriga bolta urishdi. Ular o‘zlarining manmanlik, takabburliklari bilan o‘zliklarini unutishdi. Yozuvchi aytganidek, boylik ularni ko‘zini ko‘r, aqlini telbaga aylantirdi. Bu o‘rinda yozuvchi xalq naqlarini kiritma sifatida juda chiroyli va o‘z o‘rnida qo‘llab, har bir fojeaning sababini, uni keltirib chiqaruvchi holatlarni uqtirib o‘tadi.

Yozuvchi ona bug‘u timsolida mehr-muhabbat, olijanoblik fazilatlarini quyidagicha ifodalaydi: “Mana shu yangi Vatanningiz bo‘ladi. Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, molu hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalaringizning bolalari bilan hamisha birga bo‘lay’<sup>52</sup>.

Ona bug‘uni biz nafosat ramzi dedik. Lekin yozuvchi bu go‘zallikni tabiatdagi boshqa bir go‘zalliklar bilan qiyoslab undagi ramziylikni yanada kuchaytirishga harakat qilgan: “U sutdek oq, qorni bo‘taloqning yungidek qo‘ng‘ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo‘lsa go‘zallik timsoli: serbutoq, go‘yo kuzgi daraxtning bir bo‘lak shoxi. Yelini emizikli ayolning ko‘kragidek top-toza va silliq’<sup>53</sup>.

Shoxdor ona bug‘u birdaniga uch ma’noni ifoda etadi: birinchidan, u ham tabiiy hayot, ya’ni tabiat hodisasidir; ikkinchidan, xalq ertagining afsonaviy qahramoni; uchinchidan esa, u xalq estetik idealining bir ifodasidir, ya’ni nafosat va go‘zallik ramzidir. Bundan Shoxdor ona bug‘uning hayot va nafosat ramzi

---

<sup>51</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 201-б

<sup>52</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 238-б

<sup>53</sup> Ўша асар. 236-бет.

sifatida realistic badiiy mazmunga singdirilganligi va realizmga xizmat qilishi oydinlashadi<sup>54</sup>.

Shoxdor ona bug‘u bola idealidagi qahramon. Bola Shoxdor ona bug‘u uning Bukey xolasiga ham ertakdagi singari beshik olib kelishiga ishonadi. U Bukey xolasi farzandli bo‘lishini juda-juda istaydi. Chunki xolasi befarzand bo‘lgani uchun eri O‘razqul tomonidan tinimsiz haqoratlanib, kaltaklanar edi. Buni ko‘rgan Mo‘min chol ich-ichidan o‘kinar, lekin qo‘lidan hech narsa kelmagani uchun ko‘rib ko‘rmaslikka olar edi. Bobosiga achingan bola xolasi uchun, O‘razqul singari hayvonsifat inson uchun ham Ona bug‘udan iltimos qilib yolvorar edi: “Sen shoxingda beshik olib kel. Shunday qilginki, bobomiz yig‘lamasin, shunday qilginki, O‘razqul amaki Bukey xolani urmasin, shunday qilginki, ulardan farzand tug‘ilsin. Men hammalarini sevaman, O‘razqul amakini ham sevaman, sen unga faqat farzand ber. Ularda shoxingda beshik olib kel...”<sup>55</sup>.

Chingiz Aytmatov Ona bug‘u obrazini tasvirlashda xalqimizning tabiat hodisalarini jonlantirib tasavvur qilish, ya’ni animistic e’tiqodlaridan foydalanadi. Ona bug‘uning odamdek gapirishi, odam bolasiga onadek g‘amxo‘rlik qila olishi singari syujetlar bunga misol bo‘la oladi.

Bundagi bosh timsol – Shoxdor ona bug‘u poklik va urug‘ning muqaddas volidasiga e’tiqod ramzidir. Qadim turkiylarning, jumladan, qirg‘izlarning bug‘uga topingani ma’lum. Ushbu tarixiy haqiqat – totemizm namunasining badiiy haqiqatga aylanishi aytmatovcha obraz yaratish san’atining qudratidan nishonadir.

Qadim turkiylar bug‘udan tashqari muqaddas jonivorlar sifatida bo‘ri va tuyaga ham sig‘inishgan. Shunisi qiziqki, bu jonzotlarning obrazi “Oq kema”da ham mavjud esa-da, ular jonsiz narsalar ko‘rinishida aks ettirilgan – bolaning sevimli toshlari bo‘lmish shaklan yotoq tuya hamda bo‘riga o‘xshab ketuvchi harsanglarni bir ko‘z o‘ngingizga keltiring-a!<sup>56</sup>

---

<sup>54</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й. 145- б

<sup>55</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 272-бет-б

<sup>56</sup> Ганиев Илхом, Ибрагимов Рустам. Чингиз Айтматов ва ХХИ аср. -Т.: Академнашр. 2013 й, 24- б.

Qadimdan ko'pgina xalqlarda biror bir hayvonga sig'inish, uni muqaddas hisoblab unga e'tiqod qilish va uni o'ldirish man etilgan. Bu fanda totemizm nazariyasi deb yuritiladi. Masalan, hind xalqida sigir muqaddas hisoblanib, hatto ularni go'shtini istemol qilish ham man etiladi.

Fa-Javons nazariyasiga ko'ra totemizm inson bilan hayvon turi o'rtasida do'stlik va homiylik haqida tuzilgan "bitim" dir.

Freyzer nazariyasiga ko'ra, primitiv xalqlar inson tug'ilishiga taalluqli dalillarni bilmaganligidan totemizm kelib chiqqan. Yoki Sharq taqvimini olib ko'raylik. Unda har bir yil va oy muayyan bir hayvon nomi bilan ataladi. Har holda hayvonlar inson ruhiyatida katta rol o'ynagan<sup>57</sup>.

## **2.2. "Oq kema"dagi hayvonot olami tasvirida inson-tabiat uyg'unligi va ziddiyati muammosi.**

Aytmatov asarlari sodda va ravon tuyulgani bilan o'z o'rnida kuchli psixologik sinchkovlikni talab qiladi. Agar e'tibor berilsa, obrazlari ichki ruhiyatida ham, qahramonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatda ham, tabiat tasviridagi ko'z ilg'amas nozik va murakkab detallarda ham qandaydir sir yashiringanini ko'rish mumkin. Yozuvchi asarda Ona Bug'u rivoyatidan tashqari yana bir necha o'rinda kichik rivoyatlarni keltirib o'tadi. Bu rivoyatlar ham zamonaviylikni anglashda bir vosita vazifasini o'tab, asarning markazida turgan Ona bug'u rivoyatini to'ldirib, izohlab keladi. Yuqorida Ona bug'u va uning mantiqiy davomi sifatida berilgan "Boyning o'limi"\* haqidagi rivoyatni tahlil qildik. Endi esa qissadagi qolgan rivoyatlarni ishimiz nuqtai nazaridan yondashib tahlil va talqin etishga harakat qilamiz.

Har bir bobning oldida keltirilgan rivoyatlar shu bobning g'oyaviy yo'nalishi bilan bog'liqlikda bo'lishidan tashqari asardagi barcha rivoyatlar ham bir-birlari bilan o'zaro bog'liq. Romandagi rivoyat, afsonalar mantiqan yaxlit bir guruhni tashkil etadilar va dam biror g'oyani ta'kidlash, tasdiqlash yoki inkor etishdek vazifani o'taydilar.

---

<sup>57</sup> Алиева Д. Ёзувчининг поэтик олами. Жаҳон адабиёти. 1998.12-сон. 174-бет

\* Асарда ривоятлар номланмаганлиги сабабли, тадқиқотда мураккабликлар туғилмаслиги учун ривоятларни шартли номлар билан атадик.

O‘z o‘rnida tabiat hodisalariga ham bee’tibor bo‘lmagan yozuvchi hatto shamol bilan bog‘liq tabiat tasviriga bag‘ishlab ham kichik epik rivoyatni asar syujetida keltirib o‘tadi: “Bobom hikoya qilgandilar: juda qadim zamonda dushman lashkarlari bizning o‘sha yerlarimizni bosib olgani yurish qilibdi. Ana shunda bizning San-Toshdan shunday shamol turibdiki, dushmanlar egarda o‘tirolmay qolishibdi. Otlardan tushishibdi, lekin piyoda ham yurisholmabdi. Shamol ularning yuzini qonga belabdi. Shunda ular shamolga orqa o‘girishibdi, shamol esa ularning yelkalariga urilib, qayrilib qarashiga imkon bermabdi., to‘xtagani qo‘ymabdi va ularni bitta qo‘ymay Issiqko‘ldan haydabdi”<sup>58</sup>. Bu bolaning tilidan aytilgan ertak bo‘lib, uni ham o‘z navbatida boshqa rivoyatlar singari bobosi Mo‘min choldan eshitgan edi. Bu rivoyatni janr jihatdan tarixiy rivoyatlar turkumiga mansubligini anglash mumkin.

Ma’lumki, Vatan ozodligi hamma davrda insonlarning azaliy orzusi bo‘lib kelgan. Bu yo‘lda jonlarini xatarga qo‘yib bo‘lsa-da, birdamlik bilan kurashganlar. Shu bois ularni yov bosib olishga imkoni bo‘lmagan. Tinch yashayotgan qabila ahli ollohning nazariga tushib, birdamlik va ahillik bilan kun kechirayotgani uchun tangri ushbu qabila ahlini o‘zining qudratli kuchi ila yov changalidan xalos etadi. Rivoyatdan kelib chiqadigan asosiy xulosa, hamjihatlik va totuvlik kishilarni yaxshilik sari chorlab, osoyishta hayotni ta’minlagan.

Yana bir o‘rinda keltirilgan rivoyatga e’tibor qarataylik: “Eski zamonda bir xon boshqa bir xonning qo‘liga asir tushibdi. Xon asir tushgan xonga debdi: “Agar istasang – mening qulim bo‘lib tirik qolasan, bo‘lmasa, eng so‘ngi tilagingni bajo keltiramanda, keyin o‘ldiraman”. Xon o‘ylab turib javob qilibdi: “Qul bo‘lib yashashni istamayman. Yaxshisi meni o‘ldirgin, lekin mening vatanimdan birinchi duch kelgan cho‘ponni chaqirtirib ber”. – “Uni senga nima keragi bor?” – “O‘lim oldidan uning qanday kuylashini tinglamoqchiman”<sup>59</sup>. Ushbu rivoyat ostida yozuvchi nima yashirayotgani, bu kiritma orqali nima demoqchiligini anglash uchun chuqur tafakkur ila fikrlamoq darkor. Yozuvchi uchun vatan tushunchasi

---

<sup>58</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 221-бет.

<sup>59</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 223-бет.

muqaddas. U shu vatanga taalluqli bo'lgan hamma narsani qadrlaydi. Shoxning orzusi o'limidan oldin Ona yurt qo'shig'ini tinglash ekanligi, u shu qo'shiq orqali o'z vatani havosidan oxirgi bor to'yib nafas olishi rivoyatning mazmunini tashkil etadi. Nega aynan cho'pon aytgan qo'shiq degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu yerda yozuvchi taniqli hofizni yoki boshqa biror kishini tanlamaydi. Cho'pon obrazi qadimdan soddalik, beg'uborlik, soflik ma'nosini ifodalab kelgan. Cho'pon aytgan qo'shiq ham o'zi kabi samimiy, ko'ngilga yaqin, soxtaliklardan yiroq. U hayotdan olib, tabiatdan masrur bo'lib ko'ylaydi. Shoh ana shu tabiiylik va hayotiylikni cho'ponning qo'shig'ida ko'radi. O'z o'rnida shohning qanchalik dono va oqilligini ushbu so'nggi tilagidan ham anglasa bo'ladi. Uni o'limga mahkum etishganda ham o'z qalbiga vatan qo'shig'ini jo aylab vatan uchun jon berayotgani yozuvchining e'tiboridan chetda qolmaydi. Bola bobosi bilan yaylovdan qaytayotganida yoqimli qo'shiq ularning qulog'iga chalinadi va cho'pon qo'shig'i haqidagi ushbu rivoyatni Mo'min chol bolaga so'zlab beradi. Bu rivoyatni ham tarixiy shaxslar haqidagi rivoyatlar turkumiga kiritsak bo'ladi.

Bolaning satiraga boy ertaklari ham mavjud edi. U bu galgi ertagini dadasiga aytib beradi (albatta hayolida). Chipalak o'tli jimjimaloqday bola bo'ladi. Uni tuya yutib yuboradi. Chipalak barg-xazonlarning ostida uxlab qoladi, tuya esa shu atrofda tentirab yurgan bo'ladi, "xap" etkizib barg-marglarga qo'shib yutib yuboradi. Shuning uchun ham aytishadi-da: tuya nima yutganini bilmaydi deb. Chipalak chinqirib, odamlarni yordamga chaqiradi. Keksalar o'zlarining Chipalaklariga yordam berish uchun tuyani suyishga majbur bo'lishadi. Bo'ri bilan ham shunga o'xshagan voqea sodir bo'ladi. U ham o'zining ovsarligi tufayli Chipalakni yutib yuboradi. Oxirida bo'zlab yig'laydi. Bo'ri Chipalakka duch kelib qoladi. "Oyog'im ostiga o'ralashgan qanaqa pashsha? Seni bir yamlab yutib yuboraman". Chipalak esa shunday deydi:

- "Tega ko'rma menga, bo'ri, aks holda, kuchukka aylantirib qo'yaman".

- "Ha-ha, - xaxolaydi bo'ri, bo'rining kuchuk bo'lib qolganini kim ko'ribdi. Shu dag'alliging uchun men seni yeyman". Shunday debdi-da, uni yutib yuboribdi. Yutibdi-yu, esidan ham chiqarib yuboribdi. Lekin shu kundan boshlab bo'rilik

rizq-roʻzidan ayrilibdi. Boʻri pisib qoʻylarga endi yetdim deganda, Chipalak uning gornida turib qichqirarkan: “Ey, choʻponlar, uxlamanglar! Bu men qoʻngʻir boʻriman, qoʻylaringni boʻgʻizlagani pisib kelyapman!” boʻri nima qilarini bilmaydi. Oʻzining biqinini tishlaydi, yerga dumalaydi. Chipalak esa hech jim boʻlmabdi. “Ey, choʻponlar, chopinglar bu yoqqa, uringlar meni, doʻpposlanglar. Choʻponlar tayoq koʻtarib boʻriga tashlanishibdi, boʻri qochibdi. Choʻponlar hayratga tushib quvisharmish. Boʻri aqldan ozibdi, oʻzi qochadi-da, tagʻin oʻzi qichqiradi, deb hayron boʻlisharmish. Boʻri esa qichqirarmish: “Meni quvib yetinglar, ogʻalar, uringlar, rahmingiz kelmasin!” choʻponlar kulgidan yiqilib qolisharmish, boʻri esa arang qochib qutilarmish. Lekin bu bilan uning holi yengillashmabdi. Qayoqqa tumshuq suqmasin, Chipalak unga pand beraveribdi. Hamma joyda uni quvishaveribdi, hamma joyda undan kulishaveribdi. Boʻri ochlikdan ozib ketibdi, terisi bilan suyagigina qolibdi. Tishlarini shaqirlatib ulibdi: “Bu qanaqa jazo boʻldi menga? Nega men oʻz boshimga oʻzim baloni sotib oldim? Qariganda jinni boʻldim, esimni yeb qoʻydim”. Chipalak esa uning qulogʻiga shivirlabdi: “Toshmatga chop, uning qoʻylari semiz! Boymatga chop, uning itlari kar. Ermatga chop, uning choʻponlari uxlab yotibdi”. Boʻri esa oʻtirib olib hiqqillarmish: “Hech qayoqqa bormayman, yaxshisi, bitta-yarimtaga kuchuk boʻlib yollanaman...”<sup>60</sup>.

Moʻmin cholning ertaklari orasidagi eng kulgili ertagi shu edi. Bola oʻz hayolida buni dadasiga soʻzlab beradi. Biz bu hikoyani koʻproq afsonaga yaqinroq janr deb tahlil qildik. Chunki afsona hayoliy fantastika motivlariga asoslangan boʻlib, mifologiya zamirida paydo boʻlgan xalq ogʻzaki janrlaridan biridir. Yozuvchi bu asarida boshqa asarlari kabi rivoyatu ertaklarini tarqoq holda joylashtirmadi. Aksincha, ularni ketma-ketlikda bir-birini izohlagan, bir-birini toʻldirgan holda kitobxonga havola etadi. Qissa “Uning ikki ertagi boʻlardir. Biri oʻziniki boʻlib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa, bobosi soʻzlab bergandi. Keyin birortasi ham qolmadi” jummalari bilan boshlanadi. Bolaning oʻzining ertagi haqiqiy ertak emas, balki bolaning tasavvuri, hayollari edi. Lekin bobosi soʻzlab

---

<sup>60</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:..Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 225-бет.

bergan ertak yagona emas, “Shamol” haqidagi rivoyat, “Cho‘pon qo‘shig‘i” haqidagi rivoyat, “Chipalak” haqidagi ertak, shundan so‘ng asardagi obrazlarni bir g‘oya atrofida birlashtirib turgan, asarning kulminatsion nuqtasini tashkil etgan Shoxdor ona bug‘u haqidagi ertak. Yozuvchi “Chipalak” nomli ertakomuz hikoyani bolaning tilidan so‘zlab beradi. Bu ertak ham ertakchi Mo‘min choldan eshitgan satiraga boy navbatdagi qistirmasi. Ushbu ertak bir qaraganda oddiygina, jo‘n ertakday tuyuladi. Lekin uning mag‘zida olam mazmun mavjudligini anglash ancha mushkul. Bu yerda yozuvchi boshga turli kulfat keltiruvchi nafsga ishora qilmoqda. Bo‘ri o‘z nafsini jilovlay olmay, Chipalakning ogohlantirishiga qaramay, uni yutib yuboradi. Lekin aynan shu ochko‘zligi tufayli boshiga og‘ir kulfatlar yog‘iladi, o‘z o‘ljasidan ayrilibgina qolmay, cho‘ponlarga kulgi bo‘lib, ularning kaltaklashidan charchab, eti suyagiga yopishib qoladi.

Yozuvchi ob‘ektiv borliqqa sinchkovlik bilan nazar tashlar ekan, shukuhiy tabiat manzaralari ham sayroqi qushlarning yoqimli sayrashi ham, toshdan-toshga urilib oqayotgan shaffof suvlarning musiqiy ohangi ham, yilqilarni yerni larzaga keltiruvchi dukur-dukuri ham, oltin donalari kabi kekxa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug‘doy donalarining mayin shildirashi ham, ko‘kda parvoz qilib yurgan yolg‘iz kalxatning qanot qoqishi ham, hatto oddiy ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, ilg‘ab olish mumkin bo‘lmagan har bir tovush, rang-barang bo‘yoqlar ham - hamma-hammasi uning nazar e‘tiboridan chetda qolmaydi<sup>61</sup>.

Rivoyatlar keltirish bilan bilan birga adib tabiat tasviri bilan bog‘liq o‘xshatishlarni ham ustamonlik bilan qo‘llaydi. Ko‘klamda ko‘karmay qolgan daraxtlarni o‘rmonda yolg‘iz qolib, qo‘rqinchdan qotib qolgan deb tasvirlash ham adibning qanchalik tabiat bilan bog‘liq ajoyib o‘xshatishlar qo‘llaganidan dalolat beradi. U bir tarafdin ana shu barg xazonlar, dov-daraxtlarning, yani tabiat tasvirining mantiqiy davomiday tuyulsada, rivoyatdan kelib chiqadigan asosiy goya nafs va uning boshga keltiradigan kulfatlari xususida. Yozuvchi O‘razqul

---

<sup>61</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. -Т.: Ўқитувчи, 2011-й. 66-67-бетлар.



singari amal va jaholatdan esankirab qolgan, jismoniy zo‘ravonligini ko‘z-ko‘z qilgan bilan ma‘nan ojiz, go‘zal qalbli odamlar ustidan hukmron, o‘z nafsining quliga aylangan, arzimagan choy-chaqaga ham o‘rmondagi qarag‘aylarni yog‘och o‘rnida pullab, mehmonma-mehmon izg‘ib, qorni to‘q, kayfi baland uyga qaytishi, alamidan bepusht, tug‘masak xotinini mushtlab, xumoridan chiqar, xullas nafsning qurboniga aylanganiga bir ishora sifatida bu ertakni keltirib o‘tgan bo‘lsa ajabmas. U aynan bo‘ridagi vahshiylikni, o‘zini o‘rmon hayvonlari ustidan hukmronligini, ko‘zi tushgan o‘ljani bir yamlab yutishi singari ochko‘zlik xususiyatlarini O‘razqul psixologizmiga qiyos qilgandek tuyuladi. Natijada bo‘ri kuchuk bo‘lib yollanishga rozi bo‘lsa, O‘razqul esa yolg‘izlikka mahkum etiladi. Unga berilgan oliy jazo esa – bu uning tirnoqqa zor o‘tishi. O‘razqulning farzand ko‘rmasligi va yolg‘izligi – bu uning yovuzligi va o‘z nafsining quliga aylangani oqibatidir. O‘razqul go‘zallik, hayot ramzi hisoblangan Ona bug‘u avlodlarining qotili. U ajdodlari an‘analarini, xalqining urf-odatlarini nazar-pisand qilmaydigan, bir pul deb qaraydigan jaholat va yovuzlik timsoli. Yozuvchi bolaning hayolida Qulibek tildan aytilgan ushbu jumalari orqali O‘razqulga nisbatan taqdirning jazo hukmini e‘lon qiladi:

- Senda hech qachon farzand bo‘lmaydi. Sen yovuz va yaramas odamsan. Seni bu yerda hech kim sevmaydi. O‘rmon ham, dov-daraxt ham, birorta giyoh ham sevmaydi. Sen – fashissan, sen bu yerdan umrbod ket. Qani, tezroq tuyog‘ingni shiqqillatib qol!”<sup>62</sup>.

Xullas, qissadagi bu rivoyatlar o‘z mazmuni va mantiqiy xulosalari bilan syujetning ma‘lum qismini tashkil etib, asarning kompozitsion bo‘lagi sifatida voqealarning rivojlanishi va yozuvchi g‘oyasining ravshan, ta‘sirli ifodalanishini ta‘minlaydi. Bu rivoyatlar asarga shunchaki kiritilgan emas, balki ular zamirida shu kunning muhim hayotiy muammolari yotadi. Ularda yozuvchining ijodiy izlanishlarining samarasi bo‘lgan falsafiy yechim va xulosalari ham bor.

---

<sup>62</sup> Айтматов Ч. Танланган асарлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти. 1978 й. 313-бет.

### III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

#### 3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.

Bugungi kunda takomillashtirilgan kompetentlik yondashuviga asoslangan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib amalda qo'llanilmoqda. Xususan, "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187 - qarori va qarorning1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"<sup>63</sup> "Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat"<sup>64</sup> ekanligi belgilab o'tilgan.

Amaldagi o'quv dasturida "Chingiz Aytmatov romanlarida ma'naviyat masalasi" mavzusi maxsus ajratilmagan. Biroq, dasturlardagi mavzuni o'qitishda, xususan, 4-sinfda "Jahon bolalar adabiyoti" mavzusiga 9 soat ajratilgan bo'lib, unda "Jahon bolalar adabiyotining G.Andersen, J.Svift, aka-uka Grimmlar, Ch.Aytmatov singari namoyandalarning sehrlil sarguzashtlarga boy asarlari va ularning dunyodagi juda ko'p tillarga tarjima qilinishi va ularda bolalarga xos xususiyatlarning aks etishi"ni o'qitish belgilangan.

**7-sinfda** "Ch. Aytmatov. «Oq kema» qissasi" mavzusiga 3 soat ajratilib, unda "Adib haqida qisqacha ma'lumot. «Oq kema» qissasida ta'sirchan, beg'ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg'ularning bobosi Mo'min chol tabiatida ham namoyon bo'lishi. Go'zal insoniy tuyg'ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog'lik og'ir

<sup>63</sup> "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187-qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>64</sup> "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187- qarorining1-ilovasi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti". [www.lex.uz](http://www.lex.uz) 119-bet

ekanligi bola, chol va O'rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta'siri, hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o'rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko'rsatilishi. Qabohatlar manbai qaerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg'anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma'naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.

Ona bug'u obrazi va uning ramziy xususiyati", shuningdek, o'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari Ch.Aytmatov. «Oq kema» qissasi tavsiya etilgan.

**9-sinfda** "Chingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun» romani" mavzusiga 4 soat ajratilgan bo'lib, unda "Ch. Aytmatovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni. Adib romanlari, jumladan, «Asrga tatigulik kun» asari haqida ma'lumot. «Asrga tatigulik kun» romanining badiiy xususiyatlari. Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo'li, ruhiy olami orqali asr dramalarining ifodalanishi. Asarda hodisalarning falsafiy-badiiy talqini.

Romanda Edigeyning yaqin do'sti Kazangap vasiyatini ro'yobga chiqarish yo'lidagi zahmatlari ifodasining ta'sirli berilishi. Unda jamiyatdagi ma'naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi" ostmavzular ko'rsatilib, shu bilan birga, o'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari uchun Chingiz Aytmatov. «Asrga tatigulik kun» romani tavsiya etilgan. Shu boisdan, o'qituvchi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi, "Oq kema" qissasi, "Asrga tatigulik kun" romani ularning mavzu doirasi va g'oyasi, obrazlar silsilasi, bu asarlarda ma'naviyat masalasi kabilardan ma'lum ma'noda xabardor bo'lishi, ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi. Bu ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun o'qituvchi darsliklardan tashqari ilmiy-nazariy adabiyotlardagi ma'lumotlarni o'qib turishi lozim.

### **3.2. Dars ishlanmasi.**

Chingiz To'raqulovich Aytmatov XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyondalaridan biri. Chingiz Aytmatov va uning "Asrga tatigulik kun" asari 9-sinf adabiyotida berilgan. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani uchun DTS da 5 soat ajratilgan. Bu

asarni o‘qitishda “Bumerang”, “Harflar tilga kirganda” kabi usullarni qo‘llash mumkin.

Bu usullar o‘quvchilarda shoirning hayot yo‘li va yaratgan asarlarning nomi, yillarini yaxshi eslab qolish ko‘nikmasini shakllantiradi hamda matematika, ona tili kabi fanlar bilan bevosita aloqadorlikni ta‘minlaydi.

**Fan:** Adabiyot

**Sinf:** 7-sinf

**Mavzu:** Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi hamda uning “Oq kema” qissasi ustida ishlash.

**Dars maqsadlari:**

**Ta‘limiy maqsad:** mavzu haqida tushuncha hosil qilish, tahlillash usullarini o‘rgatish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarning insonni tushuna olish, insoniy qadriyat fazilatlarini tarbiyalash;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** hayoti bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil tahlil qobiliyatini o‘stirish, asarni analiz va sintez qila olishini ta‘minlash;

**Dars metodi:** Interfaol.

**Dars usullari:** “Zehn boshqotirmasi”, kichik ma‘ruza, bahs, aqliy hujum, “Adashtirdim, topingchi?”, savol-javob, muammoli vaziyat, tadqiqot.

**Dars jihozi:** Darslik, Chingiz Aytmatov asarlari, “Oq kema” qissasi, kompyuter, rangli qog‘ozlar.

**Dars rejasi:**

Uy ishini tekshirish va baholash- 10 min.

O‘tilgan darsni mustahkamlash-5 min.

Yangi mavzuni o‘tish- 10 min.

Yangi mavzuni mustahkamlash- 10 min.

Baholash- 3 min.

Uy ishi berish- 2min

**P.S. REGLAMENT:** dars jarayonida o`zgarib turishi mumkin. Chunki Adabiyot darslari qoliplarga sig`maydi!

Dars shiori:

Dars – teatr. Lekin siz tomoshabin emassiz!

### **Darsdan kutiladi:**

1. Erkin fikr bildira olish mahoratini namoyish etish;
2. Faollik;
3. Ijodkorlik;
4. Zarur xulosa chiqara bilish;
5. Insonni tushunish va uning ruhiyatini anglash;

### **Darsga qo`yiladigan talablar:**

1. O`zaro hurmat;
2. Fikrni erkin va ravon ifodalash;
3. O`zgalar fikrini tinglash va hurmat qilish;
4. Adabiy til me`yorlari asosida so`zlash.

### **Dars borishi.**

*“Hech kim o`z-o`zidan yozuvchi bo`lib qolmaydi: yillar sabog`i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo`lgan qiziqish va e`tiqod orqali bunga erishish mumkin.”*

*Chingiz Aytmatov*

O`tilgan darsda Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi yoritilgan edi. Uyga vazifa yozuvchi hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish, 5x15 konspekt usulida mustahkamlash, “Oq kema” qissasi matni bilan tanishib kelish edi. Hozir esa

o'quvchilarga Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini qay darajada zehn bilan o'rganganliklarini aniqlash maqsadida ularga "Chala xat" zehn matni beriladi. Unda o'quvchilar o'zlarining sinchkovliklarini aniqlaydilar. Buning uchun o'quvchilar 2 guruhga ajratilib, jamoa sardorlari aniqlanadi. Shundan so'ng har bir guruhga 1tdan zehn matni tarqatiladi. **Reglament: 5 minut** "Chala xat" zehn matni quyidagicha:

Bizning \_\_\_\_\_da \_\_\_\_\_ odatiga qat'iy rioya qilinardi. ...Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi \_\_\_\_\_ daryosi qirg'og'ida eski, yerga botib borayotgan \_\_\_\_\_ bor. ... Bu \_\_\_\_\_ shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg'otib, \_\_\_\_\_ning davomini aytib berishini so'rardim. ...


19\_\_\_\_-yil mening otam-partiya xodimi, \_\_\_\_\_dagi qizil professura institutining tinglovchisi-qatag'on qilindi. Bizning oila \_\_\_\_\_ga ko'chib keldi. Oilamizda \_\_\_\_\_ farzand, men \_\_\_\_\_ edim. ... Men juda erta ishlay boshladim: \_\_\_\_\_ yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. ... Institutda o'qish davomida badiiy adabiyot meni o'ziga tamoman band etganini aniq sezdim. Shu sabab 19\_\_-yili Moskvadagi \_\_\_\_\_ kursiga o'qishga kirdim. Faqat \_\_\_\_ yilgina davom etgan mazkur kurs menga favqulodda ko'p bilimlar berdi. ... Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin.

### **"Chala xat" zehn matnining to'liq varianti**

Bizning **ovulimizda yetti otasini bilish** odatiga qat'iy rioya qilinardi. ...Bizning Shakar ovulimiz chekkasidagi **Qurqurov** daryosi qirg'og'ida eski, yerga botib borayotgan **tegirmon toshi** bor. ... Bu **tushlar** shunchalik qiziq ediki, u mudrab uxlab qolgan vaqtida ham men uni uyg'otib, **tushning** davomini aytib berishini so'rardim.

...1937-yil mening otam- partiya xodimi, **Moskvadagi** qizil professura institutining tinglovchisi — qatag'on qilindi. Bizning oila **ovulga** ko'chib keldi. Oilamizda **to'rt farzand**, men **eng kattasi edim**. ... Men juda erta ishlay boshladim: **10** yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatidim. ... Institutda o'qish davomida badiiy adabiyot meni o'ziga tamoman band etganini aniq sezdim. Shu sabab 1956-yili Moskvadagi **Oliy adabiyot** kursiga o'qishga kirdim. Faqat **ikki** yilgina davom etgan mazkur kurs menga favqulodda ko'p bilimlar berdi. ... Hech kim o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolmaydi: yillar sabog'i, qilingan mehnat, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va e'tiqod orqali bunga erishish mumkin.

Shundan so'ng "Oq kemani yasaymiz" savol-javobi bo'lib o'tadi. Unda o'qituvchi 2 tadan a'zosi bo'lgan 2 ta guruh tashkil etadi. Guruhlar o'z savollarini raqib guruhga beradilar hamda kema qismlarini hosil qiladilar. **Reglament 5 minut.**



beriladi.

1970- "Oq kema" qissasi yozildi.

1980- "Asrga tatigulik kun" romani yozildi.

1990- "Kassandra tamg'asi" romani yozildi.

1999- Qirg'izistonda Chingiz Aytmatov nomidagi Xalqaro "Oltin medal" ta'sis etildi.

1958-yil "Jamila" qissasi yozildi.

1968-yil Chingiz Aytmatov Qirg'iziston Xalq yozuvchisi bo'ldi

1995-yilda Ch.Aytmatov Markaziy Osiyo xalqalari madaniyati assambleyasi Prezidenti bo'ldi.

1995-yil Ch.Aytmatov O'zbekistonda "Do'stlik" Ordeni bilan mukofotlandi.

1998-yil Ch.Aytmatov O'zbekistonda "Buyuk xizmatlari uchun" Ordeni bilan mukofotlandi

**Shundan so'ng o'tilgan darsni qisqacha xulosalab, yakunlanadi.**

**Yangi mavzu : “Oq kema” qissasi. Obrazlar talqini**

*Yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilar qissani qay darajada sinchkovlik bilan o'qiganliklarini tekshirish maqsadida asar matni bo'yicha zehn boshqotirmasi o'tkaziladi.*

*U quyidagicha: “Adashtirdim, topingchi?” zehn boshqotirmasi. Unda o'quvchilar qissadan berilgan ma'lumotlar ichidan xato ma'lumotlarni ajrata olishlari lozim. Uni jadvalga joylashtiring. **Reglament: 6 minut***

Kunduzlari, odatda **shom** vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga jo'nashni yaxshi ko'rardi.

Bo'key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo'lardi. Ko'pincha g'amgin va tajang yurar, **eriga** e'tibor ham qilmasdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug'u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o'rmonlarda ona bug'ularni ovlashga tushib ketdi.

- E, bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: **ochko`zlik** takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi.

Bola bir kun **adirdan** turib ko'm-ko'k Issiqko'lda oq kemani birinchi marta ko'rib qolganida

Noto'g'risi	To'g'risi	Noto'g'risi	To'g'risi

### **Boshqotirmaning to'g'ri varianti**

Kunduzlari, odatda **tush** vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga jo'nashni yaxshi ko'rardi.

Bo'key xolaning xushnud damlari kamdan kam bo'lardi. Ko'pincha g'amgin va tajang yurar, **jiyaniga** e'tibor ham qilmasdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug'u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o'rmonlarda **oq** bug'ularni ovlashga tushib ketdi.

- E, bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: **boylik** takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi.

Bola bir kun **Qorovultog'**dan turib ko'm-ko'k Issiqko'lda oq kemani birinchi marta ko'rib qolganida...



Noto'g'risi	To'g'risi	Noto'g'risi	To'g'risi
<b>shom</b> vaqtiga...	<b>tush</b> vaqtiga	<b>Adirdan</b> turib...	<b>Qorovultog'dan</b> turib...
<b>Eriga</b> e'tibor ber...	<b>Jiyaniga</b> e'tibor ber...	<b>Ochko'zlik</b> takabburlikni...	<b>Boylik</b> takabburlikni...
<b>Ona</b> bug'ularni...	<b>Oq</b> bug'ularni...	Ona bug'i <b>tanasini</b> ...	Ona bug'i <b>kallasini</b> ...

**O'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlanadigan muammoli vaziyatlarga namunalar:**

1. "Oq kema" qissasi nima haqida? (*o'qituvchi doira va strelkalardan foydalanib, o'quvchilar fikrlarini doskada asarning qisqa sxemasini chizib boradi*).
2. «Oq kema» qissasi boshlanishida bolaning ikki ertagi bo'lgani haqida gap boradi.  
Siz shu ertaklarning qaysilar ekanligini aniqlay oldingizmi?
3. Nega bolaning ismi yashirin?
4. **Mo'min cholni nega yozuvchi "kamdan-kam uchraydigan baxtli odam" deya tasvirlaydi?** Bolaning bobosi Mo'min chol tabiati haqida nima deya olasiz? Uni nega hurmat qilishmaydi, u bilan nima uchun hisoblashishmaydi?
5. Bolaning tengdoshlarsiz, yolg'iz ekanligi sababini tushuntiring.
6. Boshqalardan yashirincha yig'laganda pana qiladigan shiroljin o'simligiga bolaning mehri nega tushgan deb o'ylaysiz? Qissa qahramoni nega yashirincha yig'laydi deb o'ylaysiz, odatda, bolalar yig'lashdan uyalishmaydi-ku?
7. Bolaning katta odamlar o'rtasida adolat, ezgulik, olijanoblik yo'qligi borasida qat'iy xulosaga kelishiga qaysi voqea turtki bo'ldi deb o'ylaysiz?
8. Bola-Mo'min chol-Bug'u-Baliq; O'rozqul-Seydahmad-Bukey xola obrazlaridagi mushtaraklik nimalarda ko'rinadi.
9. Tabiat va odamlar tasvirida qanday yangilik bor? Bola nom bergan o't va toshlar bilan asar qahramonlari o'rtasida qanday bog'liklik bor?
10. "Shum bola" bilan qiyoslang: tabiati, davri, odamlari, bola...

**Shundan so'ng asar bo'yicha muommoli vaziyat o'rtaga tashlanadi:**

ХУЛОСАЛАШ  
УЧУН МУАММОЛИ  
ВАЗИЯТ

**Асарнинг бадиият ва сюжет чизиғини ўзгартириб юборадиган ўринларни айта оласизми?**

О‘қувчилар javobi tinglangach, о‘qituvchi о‘z xulosasini aytib, darsga faol qatnashgan о‘quvchilar baholaydi

**Uy ishi:** “Оq kema” qissasidan so‘ng mavzusida insho yozib kelish.

Xayrlashiladi.

## XULOSA

Ma'lumki, muayyan bir xalqning milliy o'ziga xosligi, urf-odatlarini, an'analarini va yetakchi fazilatlarini adabiyotda aks ettirishda folklarning o'rni beqiyosdir. Qolaversa, millatning ma'naviyati uning adabiyotida ko'rinadi, yozma adabiyot esa xalq ijodidan oziqlanadi, bu jarayon folklorizmlar orqali namoyon bo'lar ekan, adabiyotda folklor an'alarining davom etishini o'rganish hamisha dolzarblik kasb etadi.

Har qanday ulkan ijodkorning buyukligi o'zining onabag'ir folklorini puxta bilishi, uning barhayot an'alarini ijodiy o'zlashtirish orqali o'lmas asarlar yaratishdagi mahorati bilan belgilanadi. Mana shu jihatdan qaralsa, atoqli so'z san'atkori Chingiz Aytmatov butun ijodi davomida inson olamidagi uyg'unlik, barkamollik, bilan birga ziddiyat va man'aviy tubanlikni qalamga oladi.

Adib inson aql-zakovatini o'tkirlashtiradigan, o'tmish va kelajak o'rtasida ko'prik vazifasini ifodalaydigan ma'naviy yetuklikni jahon adabiyotida an'anaga aylangan o'z uslubni asarlariga sindirdi. U asarlarida tabiat va inson orasidagi mutanosiblikni ta'minlash kabi zavol bilmas xislatlariga amal qildi, o'z qahramonlari faoliyatida ularni yetakchi ma'naviy-ahloqiy mezonlar sifatida muvaffaqiyat bilan qo'lladi.

Yozuvchi "Oq kema"da qo'llagan folklordan ijodiy foydalanish usulini o'zining ilk romani bo'lmish "Asrga tatigulik kun"da ham sinab ko'rdi. Yozuvchining o'ziga xos bu uslubi ushbu asarning muvaffaqiyatini ta'minladi. Adib bu rivoyatlarni shunchaki keltirish yo'lidan bormay, ularning har birida zamonamizning imkoniyat boshiga solgan muammolari talqiniga e'tibor qaratdi. Rivoyatlar ifodalagan ma'nolar shu qadar zamonaviyki, ular kishi hayotida duch keluvchi turli-tuman murakkab vaziyatlarga, muammolarga javob bo'la oladilar. Shu jihatdan asardagi qadim rivoyatlar yangi zamon kishilarining ma'naviy-ahloqiy kamolotida belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

Aslida, qoliplangan har bir hikoya-voqelik roman ichida har bir romanga mavzu bo'lgulik. Ammo yozuvchi roman yozish yo'lidan emas, insonni kashf etish yo'lidan boradi. Oddiy Kazangap, to'pori Edigeey, vaysaqi Sobitjon, sodda Edilboy

Daroz, jafokash Zarifa, milliy tuygʻulari joʻsh oʻrgan Quttiboev, hatto Qoranor vositasida ulkan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-ruhiy muammolarni koʻtaradi!<sup>65</sup>.

Asarda keltirilgan ikki rivoyat ikki xil gʻoyani targʻib etishga yoʻnaltirilgan. Birida vijdotsiz junjanglar tomonidan manqurtga aylantirilgan yigitning qismati yoritilsa, ikkinchisida qari otin Raymali ogʻa va endigina oʻn toʻqqizni qoralagan Begimoyning fojeali muhabbati tarannum etiladi.

Adibning “Oq kema” qissasi uslubi, mavzu va mazmun koʻlami, obrazlar silsilasi bilan munosabati, tarix va zamona aloqalari, barkamol avlod tarbiyasidagi taʼlim-tarbiyaviy ahamiyati benihoya katta. Qissa markazida turuvchi Shoxdor ona bugʻu haqidagi rivoyat insoniyaning azaliy umidlari, Ona bugʻuning jasorati, qudrati, mehr-muhabbati haqidagi qarashlar bosh gʻoya sifatida tanlangan. Shuningdek, ushbu gʻoyaning mantiqiy davomi sifatida “Boyning oʻlimi”, bolaning tilidan aytilgan “Shamol”, “Choʻpon qoʻshigʻi” va “Chipalak” haqidagi rivoyatlar ham asarga oʻzgacha joziba taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu rivoyatlar oʻzining badiiy qimmatini va didaktik ahamiyatini bilan qissa mazmunini yoritib, tarix va zamonaviylik munosabatlarini anglash uchun bir vosita vazifasini oʻtaydi.

Adibning “Asrga tatigulik kun” romanining gultoji hisoblangan “Nayman ona va uning manqurt oʻgʻli” va qari otin haqidagi “Raymali ogʻa va Begimoy” rivoyatidagi manqurtlik kishi qalbini junbushga soladi. Birgina manqurt atamasi Aytmatov nomini yana bir karra jahon adabiyotining yuqori choʻqqisiga koʻtarilishiga sabab boʻldi. Hazrat Alisher Navoiy, Mahmudxoʻja Behbudiy asarlarida tilga olingan “marquq” tushunchasi, ushbu romanda “manqurt” shaklida qoʻllanilib, adabiy-badiiy hodisaga – ajdodlari, azaliy qadriyatlarini, demakki, oʻzligini yoʻqotgan, xotirasizlikka mahkum kimsalarning badiiy ramziga aylandi.

Asardagi “Raymali ogʻa va Begimoy” haqidagi rivoyat ham Manqurt rivoyatidan badiiy qimmatini jihatidan qolishmaydi. Rivoyatdan taraladigan asosiy gʻoya sevgi-muhabbat va uning umrboqiy mavzusidir.

---

<sup>65</sup> Ганиев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. -Т.: Академнашр. 2013 й, 199 б.

Ma'lumki, san'at asarlarining kuchini, qimmatini belgilaydigan mezonlardan biri keng kitobxonlar ommasidir. "Agar sening asaring kitobxonlarni hayajonlantirsa, bu baxtdir" – deydi adib Chingiz Aytmatov. Buyuk iste'dod sohibi o'zi shunday baxtga musharraf bo'ldi va jahon adabiyotining yirik siymosi bo'lib tanildi. Endilikda yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi adabiyotida Aytmatov maktabida saboq olmagan, unga taassub qilmagan yosh yozuvchilar topilmasa kerak. Bugungi kunda Chingiz Aytmatovning asarlari kirib bormagan biron-bir xonadon yoki adibning asarlarini o'qimagan kitobxon bo'lmasa kerak. I.G'ofurovning obrazli so'zlari bilan aytganda Chingiz Aytmatov "dunyoning hamma yog'idan ko'rinib turgan tog'. Bu cho'qqini hamma ko'radi, hamma biladi".

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XX1 аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т .: “Ўзбекистон” 1997.
2. Каримов И. А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т .: “Ўзбекистон”, 1997.
3. Каримов И. А. Жамият мафкураси: халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. –Т .: “Ўзбекистон”, 1999.
4. Каримов И. А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. –Т .: “Ўзбекистон”, 2000.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон XX1 асрга интиломда. –Т.: “Ўзбекистон” , 2000.
6. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.
7. Каримов И.А. Энг асосий мезон-ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. -Т.: “Ўзбекистон ”, 2009.
8. Алимова Д. Тақдир тилсимларига таяниб... дурдона-алимова.лывежоурнал.сом. 15.01.2011.
9. Айтматов Ч. Муҳаббат эътирофи. “Советская Киргизия”, 1962, 7 сентябр.
10. Айтматов Ч. Очерки, стати и ретсензии о творчестве. Фрунзе, 1975.
11. Арагон Л. Самая прекрасная повест о любви в мире. // Культура и жизнь, 1959, № 7.
12. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. - Т.: Янги аср авлоди, 2012.
13. Брандис Е.П. , Дмитревский В.И. Мир будущего в научной фантастике. - М. : Знание, 1965.
14. Гачев Г. Чингиз Айтматов. Фрунзе, 1989.
15. Ҳомидий Ҳ. ва б. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1970.
16. Ҳотамов Н. Адабиётшуносликдан қисқача русча-ўзбекча терминологик луғат. - Т.: Ўқитувчи, 1969.

- 17.Жўрабоев А. Сўз-башарнинг жонбахш ўзаги. анваржўрабоев. блогспот.сом. 6.06.2012.
- 18.Комилов Н. Тафаккур карвонлари. - Т.: Шарқ, 2011.
- 19.Лебедева Л. Повести Чингиз Айтматова. - М.: 1972.
- 20.Левченко В. Чингиз Айтматов. - М.: 1983.
- 21.Мирза-Ахмедова П.М. Национальное эпическая традиция в творчестве Чингиза Айтматова.- Т.: 1980.
- 22.Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида фолклор анъаналари. – Т.: Истиклол, 2005.
- 23.Курунов Д. Адабиётшуносликка кириш.-Т.: «Халқ мероси» нашриёти, 2004 .
- 24.Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. -Т.: 1994.
- 25.Рашидов А. Сўнмас юлдузлар. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
- 26.Рашидов А. Чингиз Айтматовнинг бадиий олами. - Т.: Ўқитувчи, 2008.
- 27.Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. –Т.: Ёш гвардия, 1990.
- 28.Смелков Ю. Фантастика – о чём она? - М.: Знание, 1974.
- 29.Султон И. Адабиёт назарияси. - Т.: Ўқитувчи, 2005.
- 30.Воронов В.Ю. Чингиз Айтматов. Очерк творчества. - М.: 1976.
- 31.Храпченко М.Б. Горизонты художественного образа. - М.: 1982.
- 32.Йўлдошев Қ. ва б. Адабиёт (7-синф учун дарслик). - Т.: Шарқ, 2013.
- 33.Шарафиддинов О. Инсониятнинг буюк вакили. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 6.08.2008.
- 34.Шукуров Н. ва б. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1979.
- 35.Ғаниев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XX I аср. –Т.: Академнашр. 2013.
- 36.Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1964.
- 37.Айтматов Ч. Сомон йўли. - Т.: 1965.

38. Айтматов Ч. Алвидо, эй Гулсари. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1968.
39. Айтматов Ч. Танланган асарлар. II томлик. I том. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
40. Айтматов Ч. Танланган асарлар. II томлик. II том. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
41. Айтматов Ч. Эрта келган турналар. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
42. Айтматов Ч. Соҳил ёқалаб чопаетган олапар. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
43. Айтматов Ч. Қиссалар. - Т.: Ўқитувчи, 1986.
44. Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун. Қиёмат. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
45. Айтматов Ч., Шохонов М. Чўққида қолган овчининг оҳи-зори (Аср адоғида айтилган истиғфор). - Т.: Шарқ, 1998.
46. Айтматов Ч. Охирзамон нишонлари. Чингизхоннинг оқ булути. - Т.: Шарқ, 2001. - 301 б.
47. Айтматов Ч. Оқ кема. - Т.: Шарқ, 2003.
48. Айтматов Ч. Жамила. - Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2005.
49. Айтматов Ч. Танланган асарлар. II жилд. - Т.: Шарқ, 2009.
50. Айтматов Ч. Тоғлар қулаётган замон (Абадий қаллик). - Т.: ВЕКТОР-ПРЕСС, 2009.
51. Айтматов Ч. Қулаётган тоғлар (Мангу қайлик). Қиёмат. - Т.: “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.
52. Айтматов Ч. Танланган асарлар. III жилд. - Т.: Шарқ, 2012.
53. Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187-қарори. [www. lex.uz](http://www.lex.uz)



54. “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги 187- қарорининг 1-илоvasи “Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти”. [www. lex.uz](http://www.lex.uz) 119-бет

**Internet saytlari:**

55. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

56. [www. literature.uz](http://www.literature.uz)

57. [www. ziyouz/ uz](http://www.ziyouz.com)

